

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

NARMANOV FERUZ ASFANDIYOROVICH

**O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA TARIX FANI
O‘QITILISHI MUAMMOLARI (1925-1991-yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)

Narmanov Feruz Asfandiyorovich

О‘zbekiston ta’lim tizimida tarix fani o‘qitilishi muammolari (1925-1991-yy.) 3

Нарманов Феруз Асфандиёрович

Проблемы преподавания истории в системе образования Узбекистана
(1925-1991 гг.) 37

Narmanov Feruz Asfandiyorovich

Problems of Teaching History in the Education System of Uzbekistan
(1925-1991) 75

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 80

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

NARMANOV FERUZ ASFANDIYOROVICH

**O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA TARIX FANI
O‘QITILISHI MUAMMOLARI (1925-1991-yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Tar414 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Mustafayeva Nodira Abdullayevna**
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Doniyorov Alisher Xudayberdiyevich**
tarix fanlari doktori, professor

Xolikova Raxbar Ergashevna
tarix fanlari doktori, professor

Ergasheva Yulduz Alimovna
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» 11 kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Faks: (99866) 239-11-40; E-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (58 -raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy). Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil «12» 11 kuni) 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E. Ergashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

B.S. G'oyibov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

G.B. Normurodova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonining kuchayib borayotganligi dunyo xalqlarining o'z milliy tarixi, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarini saqlab qolish muammolarini yechishda muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Tarix fanini o'qitish, uning mazmun-mohiyatini har bir xalqning ming yillar davomida taraqqiy etib kelishini ilmiy tarixiy asoslash va uni kelajak avlodga yetkazib berishdek mas'uliyatli vazifa har doim dolzarb hisoblangan. Tarix ta'lim faoliyatini samarali qilishda, uni tarixni o'rganish asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarb ekanligini ifodalaydi.

Dunyoning bir qancha ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning sovet davri tarixi, jumladan, 1925-1991-yillarda kechgan madaniy jarayonlar, xususan, hukmron tuzumning ta'lim sohasida olib borgan siyosati va uning mustamlakachilik mohiyati, sovet davlati tomonidan shakllantirilgan ta'lim nazariyasi, ta'lim tizimining mafkuralashtirilishi, tarix fanining partiya siyosiy targ'ibot quroliga aylantirilishi masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy o'zlikni anglash, yoshlarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash va haqiqiy tarixni tiklash har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylandi. O'zbekiston Prezidentining "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir"ligi haqidagi fikrlari tarix fanining bugungi kundagi ahamiyatini ko'rsatib turibdi¹. Shu jihatdan tarix fanini o'qitish, uni targ'ib qilish orqali jamiyatdagi kishilarda tarixiy tafakkurni mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3105-son, 2021-yil 16-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5186-son qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmonlari, 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5598-son farmoyishi va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз / Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. // <https://president.uz/ru/lists/view/111>.

vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Jahonda sovet davlatining taʼlim va madaniyat sohasida yuritgan siyosati, tarix fanining oʻqitilishi va uning kommunistik partiya mafkuraviy siyosatida asosiy vositaga aylantirilishi, tarix fanini oʻqitishning nazariy asoslari, tamoyillari, davriy bosqichlari, mazmun-mohiyatini oʻrganishga oid tadqiqotlar qator yetakchi ilmiy markazlar va oliy taʼlim muassasalarida, jumladan, Oksford University (Buyuk Britaniya), Harvard University (AQSh), Chicago University (AQSh), New York University (AQSh), Stenford University (AQSh), Kennan Institute (AQSh), Zentrum für Osteuropaund internationale Studien (Sharqiy Yevropa va Xalqaro tadqiqotlar markazi, Germaniya), Pontifical Gregorian University (Italiya), Moscov state university (Rossiya), Marmara University (Turkiya), Janubiy Qozogʻiston universiteti (Qozogʻiston), Oʻzbekiston Milliy universiteti va Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti (Oʻzbekiston) kabilarda olib borilmoqda.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida sovet davlatining taʼlim siyosati va kommunistik mafkuraning hukmronligi tarixiga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: sovet davlatida kommunistik mafkura targʻibotida ijtimoiy fanlarning asosiy vositaga aylantirilganligi, tarixchi kadrlarga boʻlgan munosabati, ularning siyosiy hamda mafkuraviy tashviqot bilan bogʻliq faoliyatlari tahlil qilingan (Oksford University, Buyuk Britaniya); Sovet davlatida taʼlim qurilishi, xotin-qizlar taʼlimi, taʼlim muassasalari faoliyati, taʼlimdagi mafkuraviy qarashlar hamda kurashlar ochib berilgan (Harvard University, AQSh); sovet davlatida totalitar tuzumning mustahkamlanishi natijasida tarix fani oʻtilishida yuz bergan oʻzgarishlar, taʼlim nazariyasi, milliy respublikalarda kishilarning kommunistik mafkura taʼsiridagi ijtimoiy-psixologik holatiga oid faktlar keltirilgan (New York University, AQSh); sovet hokimiyati yillarida oʻqituvchilarning Stalin davri qatagʻon siyosatiga tortilishi bilan bogʻliq jihatlar oʻrganilgan (Kennan Institute AQSh); bolsheviklarning Oʻrta Osiyodagi milliy siyosati va Oʻzbekistondagi milliy ziyolilarning qatagʻon etilishi kabi jihatlar tahlil etilgan (Stenford University AQSh); kommunistik mafkuraning insonlar ongiga taʼsiri tufayli koʻplab tarixiy kitoblarning burjua mafkurasini targʻib qiluvchi sifatida yoʻq qilinganligi bilan bogʻliq dalillar keltirilgan (Sharqiy Yevropa va Xalqaro tadqiqotlar markazi, Germaniya); “madaniy inqilob” siyosatining mazmun-mohiyati, uning taʼlim

² Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <http://www.researchgate.net>, <http://www.academia.edu>, <http://www.trove.nla.gov.au>, <http://www.goodreads.com>, <http://www.abebooks.co.uk>, <http://www.hup.harvard.edu>, <http://www.unrisd.edu>, <http://www.booktopia.com.au>, <http://www.ucis.pit.edu>, <https://www.dvfu.ru>, <https://fati.uz> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

nuqtayi nazardan qarashlari, proletariat diktaturasining oqibatlari (Pontifical Gregorian University, Italiya); tarix fanini o'qitishning pedagogik va metodik jihatlari, milliy tarix masalalari o'rganilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya); sovet davlatining O'zbekistonda olib borgan ta'lim siyosati, savodsizlikni tugatish tadbirlari tarixiga doir muhim jihatlar O'zbekiston Milliy universiteti va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti (O'zbekiston)da tadqiq etilgan.

Sovet hokimiyatining totalitar boshqaruvi sharoitida kommunistik partiyaning ta'lim jarayonlariga mafkuraviy tus berishi, bolsheviklarning o'qituvchi kadrlar saflarini tozalash va ijtimoiy fanlar kesimida mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini o'rganishga oid qator, jumladan, quyidagi ustivor yo'nalishdagi tadqiqotlar davom etmoqda: ta'lim siyosatining xotin-qizlar ijtimoiy hayotiga ta'sirini ko'rsatib berish, ta'lim islohoti, sovet hokimiyatining diniy siyosati va ijtimoiy fanlar tizimidagi holati, ta'lim tizimida "sinfiy kurash" masalasining mohiyatini ochib berish, bolsheviklarning milliy ziyolilarni qatag'on qilishi bilan bog'liq ziddiyatli tomonlarini o'rganish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot obykti sifatida O'zbekistonda sovet hokimiyatining ta'lim sohasida olib borgan siyosati va ta'lim tizimida fanlarning o'qitilishi bilan bog'liq masalalar bir qator tadqiqotlarga asos bo'lgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan izlanishlar dissertatsiyada tahlil qilib o'tilgan. Unda muammoga doir ilmiy adabiyotlar 3 guruhga bo'lingan: birinchi guruh – sovet hokimiyati yillarida nashr etilgan tarixiy ilmiy adabiyotlar; ikkinchi guruh – mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; uchinchi guruh – xorijda nashr etilgan ilmiy asarlar tahlilidan iborat. Mavzuning tarixshunosligi va manbashunoslik tahlili birinchi bobning uchinchi va to'rtinchi qismlarida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ATD-1 "O'zbekiston hududida davlatchilik tarixi: an'analar va transformatsion jarayonlar (2021-2025-yy.)" deb nomlangan tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1925-1991-yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi muammolari tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda tarix fanini o'qitishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish;

sovet davrida shakllantirilgan ta'lim nazariyasi va uning tarix fani darslariga singdirilishi natijalarini ko'rsatib berish;

muammoning tarixshunoslik va manbashunoslik jihatidan tahlilini amalga oshirish;

O'zbekistonda 1925-1945-yillarda sovet andozasidagi maktablarning kengayishi va ularda tarix fani o'qitilishi holatini ochib berish;

1946-1991-yillarda tarix fani ta'limi sovet mafkuraviy siyosatining vositalaridan biriga aylantirilganligini ko'rsatib berish;

maktab ta'lim dasturlari va o'quv rejalarining mazmun-mohiyatini tahlil qilish;

oʻrta maxsus taʼlim tizimida tarix fani taʼlimi holatini ochib berish;
oliy taʼlim dasturlari va oʻquv rejalarining mazmun-mohiyatini aniqlash;
oliy taʼlim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarning oʻqitilishi va unda tarix fanining oʻrnini koʻrsatib berish;

XX asrning 20-30-yillarida Oʻzbekistonda tarixchi kadrlarga boʻlgan ehtiyoj va uning yechimi yoʻllarini koʻrsatish;

oliy taʼlim tizimida tarixchi kadrlar tayyorlovchi maxsus fakultetlarning yoʻlga qoʻyilishi va kelgusi faoliyatini koʻrsatish;

tarix fakultetlari uchun oʻquv materiallarining yaratilishi va ularning mazmunini oʻrganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1925-1991-yillarda Oʻzbekiston taʼlim tizimida tarix fanini oʻqitish muammolari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Oʻzbekistonda sovet hokimiyati yillarida tarix fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, tizimlilik, ogʻzaki tarix, matn diskursi, tahlil va sintez, xronologik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sovet davri taʼlim tizimida tarix fanining oʻqitilishi siyosiy-gʻoyaviy tarbiya vazifasiga yoʻnaltirilganligi, tarixiy mavzularning tanlovi va yondashuvlar mazmuni partiya qarorlari va koʻrsatmalari asosida belgilanganligi, tadqiqotlar siyosiy mazmunga yoʻnaltirilganligi, obyektiv tarixiy manbalardan foydalanish chegaralanganligi, tarixshunoslikda ilmiy erkinlik hamda tanqidiy fikrlarning cheklanganligi dalillangan;

XX asrning 30-yillaridan taʼlim tizimida tarix faniga eʼtibor kuchaytirilganligi, milliy respublikalar, jumladan, Oʻzbekiston maktab taʼlimida ijtimoiy fanlar kesimida tarix fani yetakchi oʻrinni egallaganligi, tarix fanini oʻqitish jarayonida sovet hokimiyatining “madaniy inqilob”, “quloqlashtirish”, “sinfy kurash”, “dinga qarshi kurash” kabi siyosiy mavzularga asosiy urgʻu berilganligi aniqlangan;

1925-1991 yillarda tarix fani formatsion yondashuvga boʻysundirilganligi, milliy respublikalar tarixi SSSR tarixining kichik ilovasiga aylantirilganligi, “mafkuraviy andoza”larga moslashtirilgan darsliklar, oʻquv adabiyotlari yaratilganligi, oʻquv dasturi va rejalarida mahalliy tarix bilan bogʻliq mavzular sunʼiy ravishda qisqartirilganligi, tarixiy bilimlarning maqsad va vazifalari oʻquvchi va talabalar ongida “kommunizm gʻoyalari”, “sovet davri ulugʻvorligi”ni targʻib etishga qaratilganligi dalillangan;

oʻzbek xalqining milliy davlatchilik gʻoyalari va buyuk tarixiy namoyondalarining nomlari sovet davri tarix fanida inkor etilganligi hamda mazmunan oʻzgarishga uchraganligi, Oʻzbekiston tarixiga nisbatan “kuchli nazorat” amaliyoti qoʻllanilganligi, tarix fanini oʻqitishning usul va uslubiy asoslariga singdirilganligi, bu mahalliy aholining oʻz haqqoniy tarixidan uzoqlashuvi, ajdodlar merosidan begonalashuvi kabi salbiy oqibatlarga olib kelganligi isbotlangan;

sovet davlatida tarix faniga targ'ibot vositasi sifatida qaralganligi, tarixchi mutaxassislarni tayyorlash mafkuraviy asosga tayanganligi, nazariy, amaliy va g'oyaviy tayyorgarligiga qarab kadrlar nafaqat ta'lim sohasiga, balki partiya va jamoat tuzilmalariga yo'naltirilganligi, shunga qaramay, O'zbekiston tarix fani rivojiga hissa qo'shgan tarixchi olimlar yetishib chiqqanligi, tor ixtisosliklar (arxeologiya, manbashunoslik, numizmatika, arxivshunoslik, paleografiya va etnografiya) yo'nalishidagi tadqiqotlar doirasi kengayganligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: O'zbekiston ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishiga doir tarixiy ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazishda OAV, xususan, televideniya ko'rsatuvlari tayyorlashda foydalanilgan;

Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonda tarix fani o'qitilishi tarixiga oid ko'plab arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va boshqa birlamchi ma'lumotlar ilk marta ilmiy muomalaga kiritilgan hamda ilmiy metodologik yondashuvlar asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'quvchi yoshlar va jamiyatdagi kishilar ongida tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, milliy tarixga munosabat kabi tuyg'ularni rivojlantirishda muhim o'rin tutuvchi adabiyotlar yaratish hamda tarix fakultetlarida o'qitilayotgan "O'zbekiston tarixining sovet davri", "Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan madaniy siyosati va uning mustamlakachilik mohiyati (1925-1991 yillar)" mavzusidagi maxsus kurslar mazmuniga yangi tarixiy ma'lumotlar kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, birlamchi manbalarga asoslanganligi, ko'p turdagi tarixiy adabiyotlardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy-tarixiy va tizimli usullardan foydalangan holda 1925-1991-yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida tarix fani o'qitilishining muammolari tarixini obyektiv, xolisona va fanlararo o'zaro uyg'unlikda tadqiq etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, O'zbekistonning sovet davri madaniyati va ta'lim tizimi tarixini o'rganishda, tarixiy bilimlarni rivojlantirishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlari va o'rta maktab ta'lim tizimida darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar tayyorlash borasidagi davlat dasturlarini bajarishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1925-1991-yillarda O'zbekistonda tarix fani o'qitilishi muammolari tarixiga oid ilmiy yangilik. ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Sovet davri ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi siyosiy-g'oyaviy tarbiya vazifasiga yo'naltirilganligi, tarixiy mavzularning tanlovi va yondashuvlar mazmuni partiya qarorlari va ko'rsatmalari asosida belgilanganligi, tadqiqotlar siyosiy mazmunga yo'naltirilganligi, ob'yektiv tarixiy manbalardan foydalanish chegaralanganligi, tarixshunoslikda ilmiy erkinlik hamda tanqidiy fikrlarning cheklanganligiga doir ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali davlat muassasasi tomonidan foydalanildi

(O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 24-iyuldagi 06-31-875-sonli ma’lumotnomasi). Qo‘llanilgan natijalar teletomoshabinlarda, kishilar turmush tarzida bugungi kunda tarix fanini o‘rganishning dolzarbligi, tarix fani sohasida tadqiqotlar siyosatga yo‘naltirilganligini ko‘rsatib berish uchun xizmat qilgan;

XX asrning 30-yillaridan ta’lim tizimida tarix faniga e’tibor kuchaytirilganligi, milliy respublikalar, jumladan, O‘zbekiston maktab ta’limida ijtimoiy fanlar kesimida tarix fani yetakchi o‘rinni egallaganligi, tarix fanini o‘qitish jarayonida sovet hokimiyatining “madaniy inqilob”, “quloqlashtirish”, “sinfiy kurash”, “dinga qarshi kurash” kabi siyosiy mavzularga asosiy urg‘u berilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Samarqand viloyati hokimligida “Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 12-iyuldagi 13-13/127-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy yangilik va xulosalar Samarqand viloyati tarixiy nomlari va toponimlarining sovet davridagi holati va uning tarixiylik qiymatini aniqlash va toponimlar izohli lug‘atining tarixiy-ilmiy ahamiyati oshishi uchun xizmat qilgan;

1925-1991-yillarda tarix fani formatsion yondashuvga bo‘ysundirilganligi, milliy respublikalar tarixi SSSR tarixining kichik ilovasiga aylantirilganligi, “mafkuraviy andoza”larga moslashtirilgan darsliklar, o‘quv adabiyotlari yaratilganligi, o‘quv dasturi va rejalarida mahalliy tarix bilan bog‘liq mavzular sun‘iy ravishda qisqartirilganligi, tarixiy bilimlarning maqsad va vazifalari o‘quvchi va talabalar ongida “kommunizm g‘oyalari”, “sovet davri ulug‘vorligi”ni targ‘ib etishga qaratilganligi haqidagi xulosalardan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “O‘zbekiston tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasi yaratilishida foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024-yil 19-sentabrdagi 10-4873-sonli ma’lumotnomasi). Natijada keltirib o‘tilgan ilmiy xulosa va yangiliklar talaba va o‘quvchilarning sovet davri tarixiga doir bilimlarni mustahkamlashga, tarix fanining o‘qitilishi va uning jamiyat uchun ahamiyati haqidagi tasavvurlarining boyishi uchun xizmat qilgan;

o‘zbek xalqining milliy davlatchilik g‘oyalari va buyuk tarixiy namoyondalarining nomlari sovet davri tarix fanida inkor etilganligi hamda mazmunan o‘zgarishga uchraganligi, O‘zbekiston tarixiga nisbatan “kuchli nazorat” amaliyoti qo‘llanilganligi, tarix fanini o‘qitishning usul va uslubiy asoslariga singdirilganligi, bu mahalliy aholining o‘z haqqoniy tarixidan uzoqlashuvi, ajdodlar merosidan begonalashuvi kabi salbiy oqibatlarga olib kelganligiga doir ilmiy yangilik va xulosalardan “Buyuk ipak yo‘li” Buxoro viloyat madaniy-ma’rifiy markazi tomonidan davlat loyihasi doirasida nashr etilgan targ‘ibot materiallarida foydalanilgan (“Buyuk ipak yo‘li” Buxoro viloyat madaniy-ma’rifiy markazining 2024-yil 24-oktabrdagi 28/01-2024-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy xulosalar sovet davri ta’lim tizimida tarix fanining o‘qitilishiga doir bilimlarni boyitish, fanga nisbatan olib borilgan ta’lim siyosatining oqibatlari va natijalarini yetkazib berish uchun xizmat qilgan;

sovet davlatida tarix faniga targ‘ibot vositasi sifatida qaralganligi, tarixchi mutaxassislarni tayyorlash mafkuraviy asosga tayanganligi, nazariy, amaliy va

g'oyaviy tayyorgarligiga qarab kadrlar nafaqat ta'lim sohasiga, balki partiya va jamoat tuzilmalariga yo'naltirilganligi, shunga qaramay, O'zbekiston tarix fani rivojiga hissa qo'shgan tarixchi olimlar yetishib chiqqanligi, tor ixtisosliklar (arxeologiya, manbashunoslik, numizmatika, arxivshunoslik, paleografiya va b.) yo'nalishidagi tadqiqotlar doirasi kengayganligiga doir ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali davlat muassasasi tomonidan foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 24-iyuldagi 06-31-875-sonli ma'lumotnomasi). Natijada keltirilgan ma'lumotlar tomoshabinlarda tarix fani nafaqat o'quv predmeti balki sovet hokimiyatining o'z siyosatini targ'ib qilishga qaratilgan vositaga aylantirilganligi haqidagi tarixiy ma'lumotlarning ilmiy jihatdan boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy konferensiyada, jumladan, 2 ta xalqaro konferensiyada va 3 ta respublika ilmiy amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 220 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlashtirib olingan, ishning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi isbotlangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqotning amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ishlar va tadqiqotning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tarix fanining ta'limdagi mavqeyi masalalarining nazariy-metodologik asoslari. Mavzu tarixshunosligi va manbashunosligi**" deb nomlangan birinchi bobida tarixiy bilimlarning nazariy-metodologik poydevori, sovet davrida shakllangan ta'lim nazariyasi va uning tarix faniga singdirilishi, shuningdek mavzuga oid tarixshunoslik masalalari tahlil etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "**Tarix fanini oqitishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan. "Tarixiy bilim" tushunchasi qadimdan "inson va jamiyat o'tmishi haqidagi bilimlar majmui" yoki "o'tmishdagi ijtimoiy voqelik haqidagi bilim" sifatida talqin etiladi. Tarix va tarixiy bilim tushunchalari ham uch ming yil davomida rivojlanib kelgan³. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda tarixiy tafakkur sezilarli rivojlandi. Abu Nasr Forobiy tarixiy bilimlarni jamiyat

³ Le Goff J. History and Memory. New York: Columbia Univ. Press, 1992. – P. 102-103.

tajribasi asosida talqin qilgan⁴, Abu Rayhon Beruniy esa uni insoniyat tafakkuri va madaniyati bilan uzviy jarayon sifatida baholagan⁵. Ibn Xaldun tarixni faktlar majmui emas, balki ularning ortidagi ijtimoiy-siyosiy sabablarni tushunishga yoʻnaltirilgan fan sifatida koʻrsatgan⁶.

XVI-XIX asrlarda Movarounnahr hududlarida tarixiy bilimlar muayyan darajada rivoj topdi. Xonliklar davridagi madrasa taʼlimida dunyoviy fanlar qatorida tarix fani ham muhim oʻrin egallagan⁷. Madrasalarda tarixiy bilimlar diniy saboqlar bilan uygʻun holda, asosan axloqiy-tarbiyaviy maqsadlar, siyosiy anglash, hamda shaxsiy ibrat olish vositasi sifatida oʻqitilgan⁸. Boshlangʻich maktablarning uchinchi va toʻrtinchi sinflarida “Muxtasar islom tarixi” alohida fan sifatida oʻqitilgani sababli bir qator jadidlar islom tarixiga doir asarlar yaratishgan⁹.

Jadid namoyandalari tarix fanini tanqidiy yondashuv asosida oʻqitishga intildilar. Mahmudxoʻja Behbudiy tarixni insonni komillikka olib boruvchi fan deb bilib, uni islomiy va umuminsoniy qadriyatlarini tushunish vositasi sifatida koʻrsatdi¹⁰. Abdurauf Fitrat tarixni “millatlarning oʻtmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sababini oʻrgʻanadurgʻon ilmdir”¹¹ deb taʼrifladi. Jadidlar metodik yondashuvda ham yangiliklar kiritdilar: Behbudiy va Fitrat tarixni tahlil va nutq madaniyati bilan bogʻlab oʻqitishni yoqladi, Munavvarqori koʻrgazmali vositalarni, Abdulla Avloniy esa texnik uskunalarini qoʻllashni taklif etdi. Shu bilan birga, tarixiy oʻlkashunoslikni rivojlantirish milliy xotirani saqlash va maʼnaviy tiklanish vositasi sifatida qaraldi. Shokirjon Rahimiy oʻlkashunoslikning taʼlim va madaniyat tarixidagi oʻrnini alohida taʼkidlagan¹².

Taʼlim nazariyasida dastlabki oʻquv dasturlari qadimgi Bobil davlati tajribasiga borib taqaladi¹³. XX asr boshida J.F. Bobbitt oʻquv dasturini “ijtimoiy muhandislik maydoni” sifatida talqin qilib, uni shaxsni shakllantiruvchi tajribalar majmuasi deb belgiladi¹⁴. Tarix falsafasi va metodologiyasida O.Shpengler, A.Toynbi, P.Sorokin, K.Yaspers kabi olimlar yangi nazariy qarashlarni ilgari surdilar.

⁴ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2-nashr. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 39.

⁵ Абу Райхон Беруний. Асарлар. Том 1. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Масъул муҳаррирлар И.Абдуллаев, О.Файзуллаев. Таржимон А.Расулов. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 15-16.

⁶ Schmidt Nathaniel. Ibn Khaldun: historian, sociologist and philodopher. – New York: AMS Press, 1967. – P. 67; Қаюмова А.Т. Ибн Халдуннинг илмий-фалсафий мероси. – Бухоро, 2021. – 104 б.

⁷ Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан: Аҳмадхон ибн Исмоилхон мероси. – Тошкент: Hilol-Nashr 2017. – Б. 25.

⁸ Алимов И. Қўқон хонлиги мадраса ва мактаблари тарихи. – Тошкент: Фан, 2017. – 303 б.

⁹ Алимова Д.А., Рашидова Д.А. Маҳмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Тошкент: Академия, 1999; Абдурауф Фитрат. Мухтасари таърихи ислом. Сўзбоши муаллифи ва таржимон Х.Болтабоев. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Абдулла Авлоний. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи Ислom. Нашрга тайёрловчи Р.Баракаев. – Тошкент: ТИУ нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008.

¹⁰ Маҳмудхўда Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 179.

¹¹ Номозова К. Жадидчилик: муаммолар, ислохот ва қарашлар. – Тошкент: TURON-IQBOL, 2010. – Б. 58.

¹² Ирзаев Б. Биринчи ўзбек алифбосининг муаллифи. // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 1 октябрь: <https://oyina.uz/kiril/article/1145>.

¹³ Jay Crisostomo. Translation as Scholarship: Language, Writing, and Bilingual Education in Ancient Babylonia. Walter de Gruyter GmbH & Co KG. University of Michigan, MI, USA. 2019. – P. 178.

¹⁴ Bobbitt F. The Curriculum. Boston: Houghton Mifflin Company, 1918. VIII, – P. 295 p. Elektron resurs. <https://archive.org/details/curriculum>.

Mustaqillik davrida tarix fanining milliy o'zlikni anglashdagi o'rni yuksaldi. Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da "Milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"¹⁵ deb, milliy tarixni yoshlar ongiga singdirish zarurligini ta'kidladi. 2022-yilda qabul qilingan PF-60-sonli Farmonning 77-maqsadi bevosita "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirish"ga qaratildi¹⁶. Shu orqali tarix fani milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni tarixiy bilim bilan qurollantirish va "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Birinchi bobning **"Sovet davri ta'lim tizimida tarix fani o'qitilishi mafkuraviy siyosatning vositasi sifatida"** deb nomlangan ikkinchi qismida ta'lim tizimining mafkuraviy asoslarda shakllantirilishi va tarix faniga marksistik nazariya doirasida yondashilib, uni siyosiy-mafkuraviy tarbiyaga bo'ysundirish masalasiga e'tibor qaratilgan. XX asr 20-yillarida tarix ta'limining asosiy vazifasi xalq mehnati va kurashining jamiyat taraqqiyotidagi rolini ochib berish ko'nikmalarini shakllantirish bo'ldi. 1921-yilda tarix mustaqil fan sifatida emas, balki jamiyatshunoslik tarkibida o'qitila boshladi, unga siyosiy iqtisod va huquq asoslari ham qo'shildi¹⁷. Biroq xalqning ma'rifatga, milliy qadriyatlarga intilishi hukmron kuchlar siyosiy manfaatlariga bo'ysundirilgan, yangi ziyolilar tayyorlash, milliy ziyolilarni esa yo'q qilish siyosati yuritildi. Savodxonlikning o'sishi, texnika taraqqiyoti va ilmiy muassasalarning tashkil topishi mafkuraviy nazorat bilan hamohang kechgan¹⁸.

1920-1930-yillarda tarix fanining ta'limdagi o'rni sovet hokimiyati doirasida keskin bahslarga sabab bo'lgan. Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, ta'lim tizimini zo'ravonlik bilan sotsialistik mafkura asosida qayta qurishga kirishdi, natijada Turkistonda ta'lim tartibsiz va rejasiz yo'lga qo'yilgan. O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab partiya ta'limni mafkuraviy nazorat ostiga oldi. Maorif boshqarmasi faoliyatida asosiy vazifa "birlashgan mehnat maktab programmasi o'rab olg'on ijtimoiy turmushi va bolalarning mehnat faoliyatini o'rganish yo'li bilan bolalarni diniy zararli ta'sirdan saqlash va unga qarshi kurash" deb belgilandi¹⁹.

O'zbekiston sovet davrida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fani mazmuni hukmron mafkura asosida shakllantirildi. 1920-yilda chop etilgan birinchi umumiy dasturda asosiy e'tibor haqiqiy tarixiy jarayonlarga emas, balki "umumxalq tarixi"ni mafkuraviy jihatdan o'qitilgan. 1925-yilgi jamiyatshunoslik dasturi esa faqat mehnat tarixi va jamiyat taraqqiyotining umumiy bosqichlari bilan cheklangan²⁰.

¹⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston, 2021. – Б. 288.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

¹⁷ Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – Б. 36.

¹⁸ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Т. 2. ... – Б. 218.

¹⁹ Иноятий Н. Мактабда динга qarshi tarbiya // Maorif va o'qitg'uvchi, 1929, № 2-3. – Б. 26.

²⁰ Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 36.

XX asrning 20-30-yillarida tarix ta'limining mazmuni sovet mafkurasi asosida "yangi sovet kishisi"ni shakllantirish vazifasiga bo'ysundirildi²¹. Marksistik nazariya asosida tarixni materialistik talqin qilish, ijtimoiy-iqtisodiy formatsion tamoyil O'zbekistonning ko'p asrlik sivilizatsion rivojini inkor etardi. Natijada milliy tarixni o'rganish ikkinchi darajaga tushirildi, yoshlar ongiga sovet davlatchiligi va tarixshunosligi singdirildi, bu esa milliy tarixiy ongni susaytirib, uni kommunistik mafkura bilan almashtirdi²².

Birinchi bobning "**Mavzuning tarixshunoslik tahlili**" deb nomlangan uchinchi qismida tadqiqotlar yaratilgan davr, geografik hududi, tili va mohiyatidan kelib chiqqan holda shartli ravishda uch guruhga ajratish imkonini beradi: sovet davrida yaratilgan asarlar; mustaqillik yillarida chop etilgan tadqiqotlar; xorijiy tarixshunoslik.

1920-1930-yillardan boshlab tarix ta'limi masalalari siyosiy-mafkuraviy talablar asosida o'rganilgan²³. Asarlarda tarix o'qitishning asosiy vazifasi sinfiy kurash, proletar diktaturasi va partiya tarixi g'oyalari singdirish deb talqin qilindi. Ikkinchi jahon urushi yillari va urushning ta'lim tizimiga ko'rsatgan ta'siri masalalari ham bir qator sovet davri mualliflari tomonidan o'rganildi²⁴. Y.V. Rachinskaya tomonidan pedagog kadrlar tayyorlash, ayniqsa, ayollarni ta'lim tizimiga jalb etish masalalari yoritildi. Jumladan, Toshkent pedagogika instituti, Toshkent va Qo'qon o'qituvchilar institutlarida ayollardan iborat pedagogik kadrlar tayyorlana boshlaganligini qayd etadi²⁵.

1950-60-yillarda tadqiqotlar ta'lim tizimida yuz bergan islohotlar, kadrlar tayyorlash va metodik o'zgarishlarni yoritishga qaratildi²⁶. Biroq mazkur asarlar hukmron mafkuradan tashqariga chiqqan olmadi va milliy tarixiy xususiyatlarni yetarlicha ochib bermadi.

XX asrning 70-yillariga kelib sovet ta'lim tizimi tarixi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortgani kuzatiladi. Bu davrda tarix

²¹ Чориев А.Х. Мустабид шўролар тузуми шароитида Ўзбекистон халқ таълими ва ўқитувчи кадрлар тайёрлаш: миллий-анъанавий ва шўро таълим тизимлари ўртасидаги зиддиятлар (20-30-йиллар). Тарих фан. доктори дисс... – Тошкент, 1998. – Б. 34-35.

²² Маҳкамов Қ. Тарихий онг: ривожланиш тенденциялари. – Тошкент: Наврўз, 2020. – Б. 13.

²³ Стражев А.И. История в средней школе. – Москва: Учпедгиздат, 1933. – 129 с.; Покровский М.Н. Историческая наука и борьба классов. – Москва: Гос. социально-экономическое изд-во, 1933. – 448 с.; Шестаков А.В. Как преподавать историю СССР по новому учебнику // Исторический журнал. – Москва, 1937, № 9. – С. 22-30; Шестаков А. В. Навстречу новому учебному году // Преподавание истории в школе. – Москва, 1935, № 4. – С. 34-40; Нечкина М.В. О периодизации истории советской исторической науки / М.В. Нечкина // История СССР. – Москва, 1960, № 1. – С. 77-91. Никифоров Д.Н. Преподавание истории // Ученые записки МГПИ. – Москва, 1959, № 5. – С. 120-122.

²⁴ Мактаблар ҳақида қўлланма материаллар тўплами. – Тошкент, 1944. – 43 б. Макаренко А.С. Тажрибаларимдан баъзи бир педагогик хулосалар. – Тошкент, 1948. Рачинская Е.В. Народное образование в Узбекистане в годы Великой войны. – Ташкент, 1963.

²⁵ Рачинская Е.В. Народное образование в Узбекистане в годы Великой войны. – Ташкент, 1963. – С. 91.

²⁶ Волкова К.Е. К вопросу об истории развития высшего образования Узбекской ССР за 30 лет. – Ташкент, 1954; Ўқитувчилар малакасини ошириш муҳим вазифи // Ўқитувчилар газетаси, 1955, 14 ноябр, № 44; Валиев А. Развитие высшего образования в Узбекистане в послевоенные годы (1945-1955 гг.): дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1956; Раджабов С. Из истории строительства советской школы в Узбекистане. – Ташкент, 1957; Думенко М.Ф. Успехи народного образования в Узбекистане. – Ташкент, 1957; Фаттаева М.А. Создание новых органов управления народного образования в первые годы Советской власти в Узбекистане. – Ташкент, 1957; Валиева А.К. Основные этапы развития высшего образования в Узбекистане. – Ташкент, 1957.

o'qitish bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratildi²⁷, ammo ular ham asosan g'oyaviy qoliplarni mustahkamlashga xizmat qildi. A.S. Sa'diyev kabi olimlar tarix ta'limiga oid izlanishlar olib borgan bo'lsalar-da, ularning ishlari biryoqlama marksistik talqinga tayanib qolgan²⁸. 80-yillarda tarixiy voqealarga nisbatan turlicha yondashuv va baho berish imkoniyatlari paydo bo'la boshlagan bir paytda, tarixiy bilimlarni o'qitish masalalari, shuningdek, sovet ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishining umumiy xususiyatlarini qamrab olgan tarixiy-tahliliy asarlar yaratila boshlandi²⁹.

Mustaqillik yillarida tarix fani va uning o'qitilishiga oid masalalar O'zbekiston tarixshunosligida muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Dastlab sovet davri ta'lim siyosati va uning oqibatlarini qayta baholashga qaratilgan tadqiqotlar yaratildi³⁰. Ta'lim va maorif sohasidagi sovetcha siyosatning natija va oqibatlari I. Tursunov, A. Choriyev, O. Komilov tomonidan alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganildi³¹. O'zbekistonda tarix fani va uning ta'lim tizimini rivojlantirish, shuningdek, malakali tarixchi mutaxassislar tayyorlash jarayoni Toshkent davlat universiteti (ToshDU) tarix fakulteti faoliyati misolida o'rganildi³².

1998-2016-yillarda milliy tarixiy haqiqatni tiklash, qadriyatlarni qayta anglash jarayonlari ustuvor bo'ldi. Bu davrda tarix fani o'qitilishi masalalari xolis ilmiy asosda yoritilgan³³.

2017-yildan keyingi davrda tarix fanining o'qitilishi va rivojlanishi O'zbekiston strategiyasi asosida tahlil qilindi³⁴. Bunda tarixchi olimlar jamoasi tomonidan sovet davri ta'lim muassasalari faoliyati O'zbekiston Milliy arxivi

²⁷ Самадов Б.С. Ўрта мактабда тарих фанини ўқитишга доир баъзи методик маслахатлар. – Қарши, Қарши давлат педагогика институти, 1978. – 56 б.

²⁸ Саъдиев А.С. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 193 б; О'sha muallif. Ўзбекистон ССР тарихини ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 199 б; О'sha muallif. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 224 б.

²⁹ Мавлонов Р. Развитие национального образование в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1985; Содиков С.С. Ўзбекистонда олий таълимни ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986.

³⁰ Abduxalilova A.E. Xiva xonligida soliq tizimi tarixi va tarixshunosligi. Tarix fanlari bo'yicha fals. dokt (PhD) disser avtoref. – Toshkent, 2024. – 52 b; XX asrning dastlabki ўttiz йиллигида Ўзбекистонда тарих фани (Тарихшunosлик очерклари). – Тошкент, 1994. 1-қисм. – 207 б; 2-қисм. – 455 б; Сагатов М.М. Историческая наука в Узбекистане в 20-30-е годы. дис. ... канд ист наук: – Ташкент, 1993. – 201 с.; Дониёров А.Х. История развития этнографических знаний в Узбекистане: (вторая половина XIX в. - 30-е годы XX в.). Автореф диссер на соиск.уч.степ. канд ист наук. – Ташкент, 1997. – 29 с.

³¹ Турсунов И. Ўзбекистон маорифчиларининг истиқлол йўлидаги кураши тарихидан (1917-1930 йиллар). Тарих фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 230 б.; Комилов О. XX асрнинг 20-йилларида Ўзбекистон миллий маорифидаги ўзгаришлар. Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 171 б.

³² Холиқова Р.Э. Ўзбекистонда тарих фани ва таълимни ривожлантириш, мутахассислар тайёрлаш: ТошДУ тарих факультети фаолияти мисолида. Дисс. ... тарих фан. ном. – Тошкент, 1995. – 215 б.

³³ Алимова Д.А. Ўзбекистон мустақиллигининг ўн беш йиллигида тарих фани // Ўзбекистон тарихи, 2006, №4. – Б.26-35; О'sha muallif. История как история, история как наука. Т.: Узбекистан, 2008; О'sha muallif. Краткая история народного образования в Узбекистане (с конца XIX в. по настоящее время). – Ташкент, 2012; О'sha muallif. Махмудхўжа Бехбудий. Миллат эҳтиёжига бахшида умр. – Тошкент: Zamin nashr, 2025. – 104 б.; Мустафаева Н. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшunosлигида. Тарих фан. ном. ... дисс... – Тошкент, 1999; О'sha muallif. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшunosлик таҳлили. – Тошкент: Navro'z, 2014. – 336 б.

³⁴ Шаякубов Ш.Ш. Ўзбекистон тарихини ўрганиш ва ўқитишнинг долзарб масалалари. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи ўқитилишининг долзарб масалалари. – Тошкент: Turon-Iqbol. 2017. – Б. 48-50.

materiallari asosida o‘rganildi³⁵. “O‘zbekistonda ta’limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi” ocherklarida XX asrning 20-50-yillaridagi ta’lim muammolari va rivojlanish jarayonlari arxiv manbalari asosida yoritildi³⁶.

2018-yildan keyin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va risolalarida milliy o‘zlikni asrab qolish va tarix fanining jamiyat ma’naviy rivojidadagi o‘rni muhokama etildi³⁷. N.Aliyeva tarix darslarida zamonaviy talablar, manbalar va pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qilib, sovet davri ta’lim tizimi bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi³⁸, O‘zbekiston viloyatlari misolida sovet davri ta’lim tizimining holati va ahvoli masalalariga doir alohida tadqiqotlar yaratildi³⁹.

Tanlangan mavzuni ilmiy asoslash va uning ilmiyligini oshirishda xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish, asarlarni qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, sovet hukumatining madaniyat sohasidagi siyosatni amalga oshirish davomida ta’lim tizimiga nisbatan olib borgan siyosati Markaziy Osiyo tarixi tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi bir qator xorij ilmiy tadqiqot markazlarida o‘rganilgan⁴⁰.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosati mahalliy aholi ongiga yangi ijtimoiy-siyosiy tafakkurni singdirishga qaratilgan bo‘lib, tarix fani ilmiy bilish vositasi sifatida emas, balki siyosiy tarbiya va mafkuraviy nazoratning muhim bo‘g‘ini sifatida shakllantirildi. Natijada o‘quv rejalari va darsliklar orqali yosh avlod ongiga sovet tuzumining “tarixiy zarurligi” va “muqarrarligi” singdirildi, milliy tarixni o‘qitish esa qat’iy nazorat ostiga olindi⁴¹. Bu jarayon Adib Xolid tadqiqotlarida mustamlaka davridagi madaniy jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilinib, Narkompros faoliyati, yig‘inlar hamda “G‘ayratlilar uyushmasi” kabi tashkilotlar misolida ko‘rsatib beriladi⁴². Xorij tadqiqotchilaridan Sh. Fitzpatrik “Education and Social Mobility in the Soviet Union, 1921-1934” asarida sovet oliy ta’lim siyosatini proletar ziyolilarini shakllantirish maqsadi bilan izohlaydi⁴³. Bundan tashqari, MDH mamlakatlari Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistonda olib borilgan tadqiqotlarda ham sovet hokimiyati davridagi ta’lim tizimi va tarix

³⁵ История образования в архивных источниках (по материалам ЦГА РУз). Том II. Составители: Алимова Д.А., Абдурасулов У.А. и др. – Ташкент: Yangi nashr, 2015. – 504 с.

³⁶ Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшunosлиги. Очерклар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2015. – 324 б; 2-жилд. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 396 б.

³⁷ Дехқонов А. Тарихни ўқитишдан мақсад нима // <https://yuz.uz/news>; Обломуродов Н. Янги Ўзбекистонда Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишнинг айрим жиҳатлари ҳақида // Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari. 2022-yil aprel. – B. 154-159.

³⁸ Алиева Н. Тарих фанини ўқитиш ҳақида айрим мулоҳазалар. Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана, 2022, 1(01). Б. 425–427. <https://doi.org/10.47689/v1i01.13680>.

³⁹ Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистон таълим соҳасидаги катагонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида 1925-1941): Тарих фан. ном. дис. автореферати. – Тошкент, 2011. – 54 б.; Бодиров А.Ж. Самарқанд вилоятидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1925 – 1941 йй.): Тарих фан. фалсафа док. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – 58 б.

⁴⁰ <http://harrimaninstitute.org>, <http://ceeres.uchicago.edu/>.

⁴¹ Jon Lauglo. Soviet Education Policy 1917-1935: From Ideology to Bureaucratic Control. Oxford Review of Education. Vol. 14, No3 (1988), – Pp. 285-299.

⁴² Adib X. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 375.

⁴³ Fitzpatrick Sh. Education and Social Mobility in the Soviet Union 1921-1934, Cambridge University Press, 1979. – P. 3-17.

fanining o'qitilishi masalalari alohida ilmiy qiziqish doirasida o'rganilganligi ko'rsatib o'tiladi. Shunday qilib, xorijiy adabiyotlar tahlili sovet siyosatining ta'limga mafkuraviy ta'sirini ochib berib, tarix fanining ilmiy bilish vositasi emas, balki siyosiy tarbiya va mafkuraviy nazorat vositasiga aylantirilganini ko'rsatdi.

Birinchi bobning to'rtinchi qismida **“Muammoning manbashunosligi tahlili”** keltirilgan. 1925-1991-yillarda O'zbekistonda tarix fanini o'qitish holati, sovet ta'lim tizimining shakllanishi va mafkuraviy siyosat ta'sirini o'rganishda tarixiy manbalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Manbalar xususiyatiga ko'ra, ularni ikkiga arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallariga bo'lish mumkin. Tadqiqotning asosiy manbaviy bazasini O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA)⁴⁴, Samarqand viloyat davlat arxivi va Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi hujjatlari tashkil etadi.

Sovet hukumati ta'limni mafkuraviy vosita sifatida ko'rib, sohaga oid ko'plab qarorlar qabul qilgan. Arxivlarda ularning ijrosiga oid ma'lumotlar saqlangan bo'lib, ta'lim siyosati va tarix fanining o'quv tizimidagi o'rnini ochib beradi. Asosiy manbalardan O'z MAning R-34 fondi (“Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi”) va R-94 fondi (“O'zbekiston SSR Maorif komissarligi”) alohida ahamiyatga ega⁴⁵. Birinchisida 1917-1924 yillardagi ta'lim tizimi haqidagi hujjatlar, ikkinchisida 1925-yildan keyingi kadrlar siyosati va fanlar tizimiga oid materiallar jamlangan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1931-1932-o'quv yilida maktablarda politexnik ustaxonalar, laboratoriyalar tashkil etilgan; 1933-1934 yillarda esa 96 ta ustaxona va 152 ta ish-kasb xonasi faoliyat yuritgan⁴⁶. Shu bilan birga, dinga qarshi targ'ibot ishlari kuchaygani qayd etilgan⁴⁷. 1931-yilda ta'lim xodimlarini rag'batlantirish haqida O'zbekiston SSR MIQ va XKSning №192 qarori qabul qilingan⁴⁸.

Samarqand arxivlarida ta'lim boshqaruv tizimiga oid hujjatlar, shu jumladan, “Отдел народного образования Каттакурганского уездного совета” va “Хатырчинский волостной исполком” materiallari saqlangan⁴⁹. Shuningdek, 1927-yildan Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti faoliyati, professor S.A. Lyaskovskiy va P.Soliev kabi olimlar haqidagi ma'lumotlar qayd etilgan⁵⁰. 1935/36-o'quv yilida Samarqand davlat universitetida 132 nafar ilmiy xodim faoliyat yuritgan bo'lib, darslarning faqat 52 foizi o'zbek tilida o'tilgan – bu mahalliy kadrlar tanqisligini ko'rsatadi. R-94 fondida 1930-1965-yillarga oid 7000 dan ziyod hujjat saqlangan bo'lib, ular ta'lim muassasalari, professor-o'qituvchilar

⁴⁴ O'z MA, R-34-fondi, ya'ni Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi hujjatlari ro'yxati yig'ma jildi. O'z MA, R-86 fond O'zbekiston SSRning Markaziy Ijroiya qo'mitasi hujjatlari, O'z MA, R-94 fond O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligining hujjatlar jamg'armasi 1-5- ro'xat hujjatlari.

⁴⁵ Назарова С.Т. XX асрнинг 20-30 йилларидаги ижтимоий-сиёсий муҳит контекстида ўзбек сахна санъатининг ривожланиши. Тарих фан бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. – Тошкент, 2023. – Б. 11.

⁴⁶ O'z MA, P-1619-fond, 11-ro'xat, 87- yig'ma jild, 3-varaq.

⁴⁷ Чориев Ш.Ш. ЎЗМА хужжатларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий тарихи ... – Б. 257.

⁴⁸ O'z MA, P-86-fond, 1-ro'xat, 6687- yig'ma jild, 216-223-varaqlar.

⁴⁹ Samarqand viloyat davlat arxivi 7-fond – Samarqand shahar xalq maorifi bo'limi, 519-fond – O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligining O'zbek Davlat Oliy pedagogika instituti, 521-fond – O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligining O'zbek Davlat pedagogika akademiyasi, 637-fond – O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligining O'zbekiston davlat universiteti.

⁵⁰ Samarqand viloyat davlat arxivi, 519-fond, 2-ro'xat, 1-ish, 18-19-varaqlar.

va kadrlar siyosati haqida ma'lumot beradi⁵¹. Tahlil shuni ko'rsatadiki, mahalliy ziyolilar, ayniqsa ikki tilda dars bera olgan mutaxassislar, ta'lim tizimida muhim o'rin tutgan⁵². Biroq ko'plab ziyolilar sovet siyosatining asl mohiyatini anglagani uchun qatag'on qilingan. Arxiv manbalari bu jarayonlarning tarix fanini o'qitishdagi siyosiy va mafkuraviy ta'sirini yaqqol yoritib beradi.

Arxiv hujjatlaridagi **statistik materiallar** 1925-1991-yillarda ta'lim tizimi rivojlanishi va tarix fanini o'qitish holatini tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi. Ular davlat hisobotlari, tekshiruv komissiyalari ma'lumotlari va so'rovnomalar natijalarini o'z ichiga oladi. Masalan, "Сводный отчет по школам Наркомпросса УзССР за 1940/41 учебный год"da o'quv yili boshida 4794 ta maktab bo'lgani, oxirida esa ular soni 4768 taga kamaygani qayd etilgan⁵³. Kadrlar yetishmovchiligi maktablar soni ortishi bilan bog'liq bo'lib, pedagogika texnikumlari va institutlar ehtiyojni qoplay olmagan. Shu sababli, 1920-yillar oxiridan o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha qisqa va ikki yillik kurslar tashkil etilgan: 1928 yilda ular 5 ta bo'lsa, 1930 yilga kelib 30 taga yetgan, tinglovchilar soni esa 159 nafardan 2600 nafargacha oshgan⁵⁴. Bu ma'lumotlar ta'lim tizimidagi islohotlar va kadrlar siyosati o'zgarishini yaqqol ko'rsatadi. Sovet davrida ta'lim to'liq markazlashgan boshqaruv asosida tashkil etilgan bo'lib, kommunistik mafkuraga bo'ysundirilgan. Barcha maktablarda yagona standartlar, dasturlar va darsliklar joriy qilinib, ta'lim mafkuraviy nazorat vositasiga aylandi. Tarix, adabiyot va ijtimoiy fanlar orqali kommunistik g'oyalar yosh avlod ongiga singdirildi.

1918-1924-yillarda Turkiston ASSR hukumatining ta'limga doir 100 ga yaqin qaror va farmoyishlari qabul qilingan⁵⁵. Milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng ta'lim siyosati SSSR dasturlariga moslashtirildi. 1932-yil 25-avgustdagi qarorda tarix va ijtimoiy fanlarni mahalliy materiallar asosida o'qitish zarurligi belgilab qo'yildi. Sovet hokimiyati tarix fanini mafkuraviy vosita sifatida ko'rib, uni "sinfiy yondashuv" asosida o'qitishni talab etgan. Darsliklar partiyaviy ruhda qayta ishlandi, milliy jihatlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish ko'rsatmalari berildi⁵⁶. Ta'lim tizimi va tarix fani kommunistik partiya manfaatlariga mos keluvchi mafkuraviy mexanizmga aylandi.

Davriy matbuot materiallari XX asr ta'lim tizimi va tarix fanini o'qitish jarayonlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim siyosati, uning natijalari va hududlardagi holati haqidagi ma'lumotlar gazetalar va jurnallar orqali muntazam yoritib borilgan. 1920-1930-yillar davriy nashrlari mazmun jihatdan ikki yo'nalishni qamrab olgan. Jadidlar tomonidan madaniy-ma'rifiy islohotlarga bag'ishlangan chiqishlar⁵⁷ va sovet hukumatining ta'lim

⁵¹ Samarqand viloyat davlat arxivi, 637-fond, 1-ro'yxat, 98-ish, 3, 5-varaq.

⁵² Чориев Ш.Ш. ЎзМА хужжатларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий тарихи ... – Б. 265.

⁵³ О'з МА, Р-1619-fond, 11-ro'yxat, 763-ish, 2-varaq.

⁵⁴ Чориев А.Х. Народное образование и подготовка педагогических кадров в Узбекистане в условиях советского тоталитаризма: противоречия между системами традиционно-национальной и советской (20-30-годы) / автореф. на соиск.ученой степени док. ист. наук. – Ташкент, 1998. – С. 27

⁵⁵ Tursunova Y.B. Sovet hokimiyatining Turkiston – O'zbekiston SSRdagi ta'lim siyosati (1918-1941-yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 10.

⁵⁶ О'з МА, R-94-Fond, 5-ro'yxat, 475-ish, 19-varaq.

⁵⁷ Bu haqida qarang: Мустафаева Н.А. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик

hamda madaniy siyosatiga oid materiallarda ta'limda tarix fanini o'qitishdagi o'zgarishlarni tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Shular orasida "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali (1925-1934) alohida o'rin tutadi⁵⁸. O'zbekiston SSR xalq maorifi nozirligi nashri sifatida u ta'lim mazmuni, o'quv dasturlari, pedagogik yutuqlar va muammolar haqidagi materiallarni chop etgan. Unda ta'lim siyosatining ilmiy va mafkuraviy yo'nalishlarini kuzatish mumkin.

Qatag'on yillarida matbuot siyosiy nazorat vositasiga aylanib, "xalq dushmanlari"ni fosh etish va kommunistik g'oyalarni mustahkamlashda faol ishtirok etdi. Masalan, "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1937-yil 6-oktabrdagi sonida Samarqand viloyati maorif bo'limi xodimlariga qarshi ayblovlar chop etilgani bu jarayonning yorqin misolidir. Ta'lim sohasidagi yana bir muhim nashr – "Sovet maktabi" (keyinchalik "Sovet pedagogikasi") jurnali bo'lib, u 1918 yildan turli nomlar ostida – "Maorif", "Bilim o'chog'i", "Maorif va o'qituvchi" – nashr etilgan. Uning nomlari va mazmuni o'zgarishi jurnalning davr talablari va mafkuraviy siyosatga moslashganini ko'rsatadi. 1951-yildan boshlab jurnal hozirgi shaklda nashr etila boshlagan⁵⁹. Davriy matbuot nashrlaridan tashviqot ishida faol foydalanilgan. Ularda kommunizm g'oyalari, g'oyaviy tazyiq va "sinfy dushmanlar"ga qarshi kurashning borishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga keng ko'lamli sotsialistik o'zgarishlar zarurligini asoslab berishga qaratilgan materiallar e'lon qilib borilgan⁶⁰.

Shu tariqa davriy matbuot materiallari ta'lim tizimidagi siyosiy va mafkuraviy jarayonlarning in'ikosi bo'lib, ular orqali tarix fanining mazmuni, o'qitish usullari va mafkuraviy nazorat mexanizmlarini chuqur tahlil qilish mumkin. O'rganilgan hujjatlar ta'lim tizimining bolshevistik mafkurasini ta'sirida shakllanganini ko'rsatadi. XX asrning 20-yillaridan ta'limni markazlashtirish va mafkuraviy nazoratga bo'ysundirishga qaratilgan qarorlar, yo'riqnomalar va hisobotlar tizimi yaratilgan. Bu manbalar sovet davrida ta'lim mazmunining "sovetcha" yo'nalishga burilishini va tarix fanining mafkuraviy vazifaga aylanishini anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, sovet davri adabiyotlari mafkuraviy chegaralar tufayli tarix ta'limining haqiqiy mohiyatini ochib bera olmagan bo'lsa, mustaqillik davrida mazkur masala xolis, milliy va ilmiy-metodologik yondashuv asosida qayta ko'rib chiqildi. Xorijiy tadqiqotlar esa sovet ta'lim siyosatini mustamlakachilik va mafkuraviy nazorat kontekstida talqin qiladi.

Tadqiqotning **"1925-1991-yillarda O'zbekistonda xalq ta'limi tizimida tarix fani o'qitish holati: yondashuvlar va muammolar"** deb nomlangan ikkinchi bobida 1925-1945-yillar O'zbekistonda sovet andozasidagi maktablarning kengayishi va ularda tarix fani o'qitilishi holati, 1946-1991-yillarda tarix fani

таҳлили. – Тошкент: Navro'z, 2016. – 334 б.

⁵⁸ O'zbekiston xalq maorif komissarligi tomonidan oyiga bir marotaba chiqib turgan ta'lim – tarbiyaviy, ijtimoiy, ilmiy, faniy va adabiy o'zbek tilidagi jurnal bo'lgan. Jurnal quyidagi bo'limlardan iborat bo'lgan: 1. Umumiy. 2. Ijtimoiy. 3. Ta'lim – tarbiyaviy. 4. Adabiyot. 5. Imloni o'rganish. 6. Fan. 7. Tarjimai hol. 8. Tanqid va kitobot. 9. So'roq va javoblar. 10. Til va islohot. 11. Go'zal san'atlar. 12. Xabarlar. 13. Rasmiy bo'lim.

⁵⁹ Ўзбекистон ССР матбуоти солномаси. – Тошкент, 1975. – Б. 86.

⁶⁰ Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925 – 1953 гг.). – Ташкент: Tafakkur, 2011. – С. 96.

ta'limining sovet mafkuraviy siyosatining vositasi sifatidagi o'rni, maktab ta'lim dasturlari va o'quv rejalarining mazmun-mohiyati tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi qismida **O'zbekistonda 1925-1945-yillarda sovet andozasidagi maktablarning kengayishi va ularda tarix fani o'qitilishi holati** tahlil qilingan. Tarix fanini o'qitishning umumiy holatida sovet mafkurasi ta'sirida milliy tarix inkor etilib, faqat umumiy tarix o'qitildi. XX asr 20-yillarida hukumat tomonidan o'quv rejasi va dasturlari qayta ko'rib chiqilib, davr talabiga moslashtirildi⁶¹. 1925-yildan boshlab an'anaviy ta'lim shakllari tugatilib, yagona sovet ta'lim tizimi joriy etildi. Natijada o'quv dasturlaridan milliy madaniyat va tarixga oid materiallar chiqarib tashlandi⁶².

1934-yil 4-maydagi qaror bilan maktablarda fuqarolar tarixini o'qitish belgilandi, O'zbekistonda esa SSSR tarixi, qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi kurslari joriy qilindi. 1937-yilda A.V. Shestakov tahriridagi SSSR tarixi darsligi o'zbek tiliga tarjima qilindi⁶³. Shu bilan birga, ayrim hududlarda tarix fani o'rniga "VKP(b) tarixi qisqa kursi" o'tilgan, maktablarda esa tarix darslari o'tilmagan.

1935/36-o'quv yilidan boshlab yozgi ikki oylik siyosiy kurslarda tarix uchun cheklangan miqdorda 50 soat, aksincha partiya tarixi uchun 60 soat belgilandi⁶⁴. Bu esa tarix o'qitilishi ustidan mafkuraviy nazoratni kuchaytirgan. Ushbu rejalar asosan targ'ibot olib borish xususiyatida bo'lib, tarixiy bilimlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni qiyoslash orqali o'rgatilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida maktab tarix ta'limida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. O'quv-tarbiya ishlarining asosiy yo'nalishi vatanparvarlik, milliy qahramonlar faoliyatini o'rganish va "O'qituvchining vazifasi – yosh o'g'il-qizlarni haqiqiy vatanparvarlar qilib tarbiyalashdan iborat" deb belgilandi⁶⁵. Yangi darsliklar, metodik qo'llanmalar yaratilib, tarix darslari mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalari targ'ib qilindi⁶⁶. Urush sharoitida maktab va oliy ta'lim tizimida tarix fani mazmuni o'quvchilarda dushmanga qarshi nafrat, g'alabaga ishonch ruhini shakllantirishga qaratildi⁶⁷. Toshkentda umumta'lim maktablari uchun "Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston tarixini o'rganish" qo'llanmasi yaratildi⁶⁸. Tarix ta'limida adabiyot, san'at, teatr, kino hamda gazeta materiallaridan keng foydalanildi, badiiy asarlarda qahramonlik siymolari tasvirlandi⁶⁹.

⁶¹ Чориев А.Х. Мустабид шўролар тузуми шароитида Ўзбекистон халқ таълими ва ўқитувчи кадрлар тайёрлаш ... – Тошкент, 1998. – Б. 35.

⁶² O'z MA. R-94-Fond, 5-ro'yaxat, 325-ish, 27-varaq.

⁶³ Ражабов С. Ўзбекистонда совет мактаби тарихига доир. – Тошкент: Давлат ўқув педагогика нашриёти, 1957. – Б. 117.

⁶⁴ O'z MA. R-94-Fond, 5-ro'yaxat, 325-ish, 31-varaq.

⁶⁵ Ўрта мактаб программалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1941. – 32 б.; Ўрта мактаб тарих программаси. – Тошкент: Ўқувпедашпр, 1941. – 52 б.

⁶⁶ Соколов Ю.А. Улуғ ватан уруши ва ўрта мактабда тарих дарсини ўқитишдаги вазифалар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1942. – 23 б; Улуғ ватан уруши шароитида тарих дарсини ўқитиш. – Тошкент: Ўздавнашр, 1942.

⁶⁷ Рачинская Е.В. Народное образование в Узбекистане в годы Великой Отечественной войны. – Ташкент, 1963. – С. 25.

⁶⁸ Гаффоров Я.Х. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ishonchli hamkor, 2021. – Б. 22.

⁶⁹ Ma'lumki, urush yillarida o'zbek adabiyotining tarixiy janr yo'nalishida Hamid Olimjonning "Muqanna", M.Shayxzodaning "Jaloliddin", Oybekning "Mahmud Torobiy" kabi tarixiy romanlar yaratilgan edi. Batafsil qarang: Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. Икки томлик. Т.1. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 207-208.

Tarix fanini o'qitishda ajratilgan o'quv soatlarining respublikalar kesimidagi nomutanosibligi⁷⁰, xususan, O'zbekistonda milliy tarix uchun ajratilgan dars vaqtining kamligi, ta'lim mazmunida asosan kommunistik partiyaning "progressiv roli"ga urg'u berilgan⁷¹. Shuningdek, tarixiy jarayonlarning soxtalashtirilgan holda yoritilishi, B. Axmedovga ko'ra, butun bir avlodning o'z milliy tarixini yaxshi bilmasligiga olib kelgani tahlil qilinadi⁷². O'quvchilarning tarix darslarini to'liq o'zlashtira olmasligiga ularning paxta va boshqa qishloq xo'jalik ishlariga keng jalb etilgani ham muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi⁷³.

Ikkinchi bobning **"1946-1991-yillarda tarix fani ta'limidagi yondashuvlar"** deb nomlangan ikkinchi qismida ushbu davrda tarix fani sovet mafkurasini yoyish, partiya nazoratini mustahkamlash va kommunistik tarbiyani amalga oshirishning asosiy vositasiga aylangan jarayoni tahlil qilingan. Urushdan keyingi yillarda tarix fanining rivoji qat'iy cheklangan doirada olib borilib, xolis yondashuvga yo'l qo'yilmagan⁷⁴. Partiya ko'rsatmalarida tarixiy shaxslarning faoliyati emas, balki podshohlar zulmi va xalq kurashiga e'tibor qaratish lozimligi belgilandi⁷⁵. Tarix ta'limida sovet vatanparvarligi va kommunizm qurilishiga ishonchni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

1940-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab "kosmopolitizm"⁷⁶ga qarshi mafkuraviy kampaniya kuchaytirilib, ijtimoiy fanlar doimiy nazorat ostiga olindi. 1946-yilda Ijtimoiy fanlar akademiyasi tashkil etilib, tarixchilar partiya siyosatini targ'ib qilish jarayonida faol ishtirok etishi belgilandi. 1949-yilda O'zSSR Fanlar akademiyasi ijtimoiy fanlar bo'limida "O'zbekiston xalqlari tarixini va o'tmish madaniyatini soxtalashtirishga qarshi" yig'ilishlar o'tkazildi⁷⁷. Maktab tarix ta'limida o'rta asrlar davri bayonida yer-mulk (feodal) munosabatlarning mohiyatini tushuntirishda sovet mafkurasini ruhida "katta og'a" – sovet xalqiga ustuvorlik berish g'oyasi singdirila boshladi. O'zbekiston xalqlarining boshqa xalqlar bilan aloqalari haqida so'z yuritilar ekan, ularning "buzilmas do'stligi" va "kommunistik partiyaning milliy siyosati tantanasi" asosiy yo'nalish sifatida talqin qilindi.

Tarixiy materiallarda o'rta asrlar davri asosan yer egaligi tartiblarning kuchayishi, mehnatkashlarning ezilishi va xalq ommasining zolimlarga qarshi

⁷⁰ Ремеев Н. СССР тарихи курси давомида Ўзбекистон тарихини ўрганиш тажрибасидан / Совет мактаби. №8. – Тошкент: 1958. – Б. 18-25.

⁷¹ Тошпўлатов Т., Фафоров Я.Х. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Турон-iqbol, 2010. – В. 5.

⁷² Ахмедов Б. Тарихни сохталаштириб бўлмади / Шарқ юлдузи, 1989 йил, 6-сон.

⁷³ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Т.2. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда... – Б. 226.

⁷⁴ Ҳасанов Б.В. Ўзбекистонда халқ таълими ҳамда фан соҳасида совет сиёсати ва миллий зиёлилар (20-йиллар иккинчи ярми - 50-йиллар бошлари) / Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам № 2. – Тошкент: Шарқ, 1999. – В. 178.

⁷⁵ Зиёев Ҳ. Тарих-ўтмиш ва келажак кўзгуси: Тарихнинг долзарб масалалари. Асарлар тўплами. 8-том. – Тошкент: Ғофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 288 б.

⁷⁶ Kosmopolitizm (lotincha. Cosmopolita va yunoncha khosmos – "olam" va pylitēs – "fuqaro") butun insoniyat manfaatlarini yagona millat yoki davlat manfaatlaridan ustun deb hisoblovchilar tomonidan asos solingan. J.R.Saulning fikricha, kosmopolitizm – dunyo birligini anglashga qaratilgan dunyoqarash va madaniy munosabatlar majmui sifatida qaralgan. 1948-1953-yillarda SSSRda kosmopolitizmga qarshi kurash olib borilib, mamlakatdagi ziyolilarning bir qanchasi tuhmat va uydurmalar bilan qamab yuborilgan edi.

⁷⁷ Мустафаева Н.А. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. – Тошкент: Navro'z, 2014. – Б. 167, 168.

kurashi sifatida ko'rsatildi. "O'zbekiston xalqlarining arab istilochilariga qarshi kurashi" mavzusi diniy qadriyatlarga qarshi kurash va ateistik targ'ibot bilan bog'lab tushuntirildi⁷⁸. Umumta'lim maktablari faoliyatida "rivojlangan sotsializm" g'oyalarini singdirish, yoshlarni kommunizm va partiyaga sodiq tarzda tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilandi⁷⁹. Shu jarayonda milliylik tamoyillari ta'lim mazmunidan asta-sekin chiqarilib, Yevropa va Rossiya tarixi "baynalmilal" namuna sifatida ilgari surildi.

Tarix darslarida sinfiy kurash nazariyasi yetakchi o'rin egallab, proletariat va burjuaziya o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosiy tushuntirish tamoyili sifatida berildi. Kommunistik mafkurada burjua dunyoqarashi hamda "troskizm" va "o'ng opportunizm" mayda burjua mafkurasi sifatida ta'riflanib, ularga qarshi mafkuraviy kurash olib borish o'qituvchilarning asosiy vazifasiga aylantirildi⁸⁰.

XX asrning 60-yillaridan boshlab tarix fanini o'qitish sakkiz yillik va o'rta maktablar uchun qayta ishlab chiqilgan dasturlar asosida olib borilib, yoshlarning g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirishga qaratildi. Respublika maktablarida tarix va siyosiy bilimlarni o'qitish o'quvchilarni kommunistik ruhda tarbiyalashga xizmat qildi. Masalan, Qo'qon shahridagi 2-internat-maktab o'qituvchisi M. Abbosova darslarda g'oyaviy va ilmiy saviyani oshirish usullarini qo'llagan bo'lsa, Angrendagi 18-maktab o'qituvchisi T.V. Pak jamiyatshunoslik mashg'ulotlarini materiya, ishlab chiqarish munosabatlari kabi mavzularda olib borgan. Mashg'ulotlarda ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilingan⁸¹.

Urushdan keyingi yillarda tarix ta'limidagi dolzarb muammolardan biri o'quv soatlari va dars mavzularining mazmuni bo'ldi. 1957-yildan boshlab maktablarda ayrim fan soatlari ortgan bo'lsa-da, O'zbekiston tarixi fanining soatlari hajmi keskin qisqarib, haftasiga 16,5 soatgacha kamaydi⁸². Sovet davrida milliy tarixning o'qitilishi kommunistik mafkura ta'sirida bo'lib, voqealar sotsiologik yondashuvlar asosida baholandi. Natijada ko'plab tarixiy jarayonlar hukmron mafkura nuqtai nazaridan talqin qilinib, ob'yektiv sabablar ko'pincha soxtalashtirildi. Bu davrda tarix o'qituvchilari nafaqat maktabda, balki jamiyatda ham targ'ibotchi sifatida faoliyat yuritdilar. Masalan, Toshkentdagi V.I. Lenin nomli 8-o'rta maktab o'qituvchisi Hadiya Abdurazzoqova sinf va sinfdan tashqari ishlarni uyg'unlashtirib, "Fan va din", "Ro'zaning zarari" kabi mavzularda ota-onalar va keng jamoatchilik uchun ma'ruzalar o'tkazdi⁸³. Shu tariqa, 70-yillarda ham tarix ta'limida g'oyaviylik ustun bo'lib, o'qituvchilar sovet hokimiyatining asosiy targ'ibotchilariga aylantirildi.

"Maktab ta'lim dasturlari va o'quv rejalarining mazmun-mohiyati" deb nomlangan uchinchi qismida XX asrning 20-30-yillaridan boshlab maktab ta'lim

⁷⁸ Ўзбекистон умумий таълим мактабларида тарих ўқитиш муаммолари. – Тошкент, 1991. – Б. 14.

⁷⁹ О'з МА, R-94-Fond, 5-го'ухат, 2169-ish, 14-вагақ; Умумий педагогика. – Тошкент, 2018. – Б. 96.

⁸⁰ Рашидов О.Р. Ўзбекистон худудида миллий зиёлилар ва большевикларнинг мафкура майдонидаги кураши (1917–1938 йй.). Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – Б. 27.

⁸¹ Қодиров Э.Қ. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи (1917-1975). – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 223-225.

⁸² Ўзбекистон тарихи (1917-1991-йиллар). ... – В. 225.

⁸³ Ражабов С., Очилов М. Совет ўқитувчиси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 28.

dasturlari va o'quv rejalarini shakllantirishda davlat tomonidan qat'iy markazlashuv siyosati olib borilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan⁸⁴. 1921-yilda Davlat Ilmiy Kengashining tuzilishi bilan o'quv dasturlari va uslubiy ta'minotni ishlab chiqish jarayonida Yevropa ta'lim tajribalaridan foydalanishga intilish kuzatildi. Tarix fanining o'quv jarayonidagi o'rni bo'yicha muhokamalar ham yuzaga chiqdi: A.P. Arxangelskiy singari olimlar tarixiy bilimlarning fundamental poydevor sifatidagi ahamiyatini alohida ta'kidlashdi⁸⁵.

Ammo 1920-yillarning o'rtalaridan boshlab "mehnat maktabi" konsepsiyasi asosida fanlarni, jumladan, tarixni ham bekor qilish zarurligi haqida munozaralar kuchaydi⁸⁶. 1927-yildan boshlab Xalq Maorif Komissarligi yagona o'quv rejaları va dasturlarni tasdiqlab, ularda asosan sotsializm qurilishi, mehnat va jismoniy tarbiya, ijtimoiy-siyosiy tarbiya ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Tarix esa dastlabki bosqichda darsliklardan chiqarildi, keyinchalik esa qayta kiritildi. 1931-yilgi "Boshlang'ich va o'rta maktablar to'g'risida"gi qaror bilan tarix mustaqil fan sifatida qayta tiklandi va uni o'qitishda "tizimlashtirilgan bilimlar" konsepsiyasi belgilandi⁸⁷. Shunga qaramay, darsliklar mazmuni sovet mafkurasi ruhida tuzildi, milliy tarix esa ikkinchi darajali faktlar sifatida yoritildi⁸⁸.

1950-60-yillarda tarix o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Kommunistik partiyaning XX syezdidan keyin XX asr tarixiga oid materiallar yangilandi. Biroq mahalliy tarixiy shaxslar faoliyatiga nisbatan salbiy baho berildi⁸⁹. XX-asrning 60-yillarida tarix fani o'quv dasturlari tarkibi mazmun jihatdan o'zgardi⁹⁰. O'zbekiston tarixi va o'zbek tili darslari qisqartirildi, rus tili va adabiyotiga ajratilgan soatlar esa keskin ko'paydi. Shu tariqa o'quvchilar milliy tarix bilan emas, balki asosan "umumittifoq" tarixi orqali tarbiyalandi⁹¹.

1969/70-o'quv yili dasturiga ko'ra, O'zbekiston tarixi uchun ajratilgan soatlar juda cheklangan bo'lgan. 7-sinfda umumiy 70 soatdan 16 soat (23%) O'zbekiston tarixiga berilgan bo'lsa, 8-sinfda 105 soatdan bor-yo'g'i 6 soat (18%) ajratilgan. Bu holat 7-sinfdan 8-sinfga o'tganda milliy tarixning o'qitilish hajmi ikki barobardan ko'proq qisqarib ketganini ko'rsatadi. Natijada, o'quv dasturida asosiy urg'u SSSR tarixini va kommunistik mafkura mazmunlarini yoritishga qaratilgan, O'zbekiston tarixi ikkinchi darajali, cheklangan doirada o'rgatilgan⁹².

⁸⁴ O'z MA. R-94-Fond, 5-ro'yxat, 14-ish, 147-varaq.

⁸⁵ Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. Очерклар. 2-китоб. – Тошкент: Adabiyot uchunlari. 2017. – Б. 166.

⁸⁶ Арслонзода Р.А. Введение в специальность: Учебное пособие. – Фергана: Classic, 2021. – С. 124.

⁸⁷ КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и Пленумов ЦК. Изд 9-е. (1929-1932 гг). Т.5. – Москва, 1984. – С. 355.

⁸⁸ O'z MA. R-94-Fond, 5-ro'yxat, 487-ish, 72-varaq.

⁸⁹ КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и Пленумов ЦК. Изд 9-е. (1956-1960 гг). Т-9. – Москва, 1986. – С. 105.

⁹⁰ Ўрта мактаб программалари. 1961/62 ўқув йили учун. СССР тарихи. СССР Конституцияси. Чет мамлакатларнинг янги ва энг янги тарихи. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1961. – 116 б; Мактаб программалари. Саккиз йиллик мактаб учун. Тарих. [V-VIII синф] – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – 64 б; Саккиз йиллик ва ўрта мактаб программалари. Тарих. 1969/70-ўқув йил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 112 б.

⁹¹ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи бўлим. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – Б. 225.

⁹² Саккиз йиллик ва ўрта мактаб программалари. Тарих. 1969/70-ўқув йил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б.4; Тарих V-XI синфлар кечки (сменали) ўрта умумий таълим мактаб программалари. – Тошкент: Ўқитувчи,

1970-80-yillarda ham ta'lim dasturlarida milliy tarixga ikkilamchi e'tibor berildi. Amir Temur, Ulug'bek, Sarbadorlar harakati kabi mavzular kiritilgan bo'lsa-da⁹³, ular ham sovet mafkurasi nuqtai nazaridan talqin qilindi. O'quv dasturlarining mazmunida o'quvchilarni milliy tarixiy jarayonlarning o'ziga xosligi bilan tanishtirish emas, balki sotsializm qurilishidagi yutuqlarni targ'ib qilish ustuvor bo'ldi⁹⁴.

Natijada XX asr davomida maktab ta'lim dasturlari va o'quv rejalarida asosiy e'tibor ta'limni markazlashuv asosida yagona tizimga solishga, sovet mafkurasini singdirishga, milliy tarixni ikkilamchi o'ringa tushirishga, o'quvchilarni "kommunistik shaxs" sifatida tarbiyalashga qaratildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Oliy va o'rta ta'lim tizimida tarix fani ta'limi o'quv reja va dasturlari**" deb nomlanib, oliy va o'rta maxsus ta'limda tarixiy bilimlar berish, oliy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishida tarix fanining o'rni va oliy ta'lim bosqichi o'quv dasturi va rejaları tahlil qilingan.

Ushbu bobning "**Oliy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarning oqitilishi va unda tarix fanining o'rni**" deb nomlangan birinchi qismida oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishi, xususan, tarix fanining majburiy fan sifatidagi o'rni va uning talabalarga nafaqat ilmiy bilim, balki mafkuraviy qarashlarni singdirish vositasi sifatida ta'siri haqida so'z boradi. Ma'lumki, ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti va tarixiy ongini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. B.D. Kedrov "gumanitar fanlar" o'rniga "ijtimoiy fanlar" atamasini qo'llab, ularga siyosiy iqtisod, huquqshunoslik, san'atshunoslik, tilshunoslik va psixologiyani kiritgan, falsafani esa alohida ajratgan⁹⁵. Sovet davrida esa tarix, falsafa, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm va boshqa fanlar mafkuraviy tarbiya vositasi sifatida talqin qilindi⁹⁶. Masalan, 1932-1933-yillarda Samarqand davlat universiteti o'quv rejasida jami 14 fan bo'lib, ulardan 5 tasi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishga oid edi⁹⁷. Oliy ta'limda bu fanlar siyosiy-mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilib, partiya nazorati ostida o'qitildi. Mezonlarga rioya qilmaganlar "tarixni soxtalashtiruvchilar" sifatida tanqid qilindi⁹⁸. 1938-yildan boshlab majburiy "VKP(b) tarixi (Qisqacha kurs)" joriy etilib, unga 800 soatlik mashg'ulot va shuncha hajmda mustaqil o'qish ajratildi. Kurs ilmiy kommunizm va falsafa bilan uyg'unlashib, partiya mafkurasining nazariy asoslarini mustahkamlashga qaratildi⁹⁹.

1972. – 152 б.; Саккиз йиллик ва ўрта мактаб программалари. Тарих. 1969/70-ўқув йил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 56; О'з МА. R-94-Fond, 7-го'ухат, 3447-ish, 51-vaqar.

⁹³ Ўрта умумий таълим мактабларининг тарих программаси. V-XI синфлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 18-19.

⁹⁴ Оқилов К. Саккиз йиллик мактабларда СССР тарихини Ўзбекистон ССР тарихи материаллари билан бирга қўшиб ўқитиш тўғрисида. // "Совет мактаби" журналі, 1959, №9. – Б. 20.

⁹⁵ Тихонов В. Противоречия роста: гуманитарное знание в СССР в 1960–1970-х годах. / Воронцово поле, №2, 2025. <https://vorontsovorole.ru/>.

⁹⁶ Ильенков Э.В. Диалектика абстрактного и конкретного в научно-теоретическом мышлении. – Москва: Мысль, 1979. – С. 87.

⁹⁷ Mamarasulov D.T. Samarqand davlat universitetining tarixiy ildizlari... – B. 190.

⁹⁸ Тарихни сохталаштирувчилар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1953. – 83 б.

⁹⁹ Elektron resurs. https://www.lib.ru/DIALEKTIKA/kr_vkpb.txt_with-big-pictures.html?utm_source=chatgpt.com.

Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fanlar umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'limi tarkibida o'qitilgan¹⁰⁰. Bu, bir tomondan, sotsialistik dunyoqarashni shakllantirishga, ikkinchi tomondan esa talabalarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni nazariy va tizimli tayyorlashga xizmat qildi.

XX asrning 60-70-yillari ta'lim siyosatida mafkuraviy nazorat kuchayganligi bilan tavsiflanadi. KPSS XXII (1961) va XXIII (1966) syezd qarorlarida kommunistik jamiyat qurish strategiyasi asosida ta'limda mafkuraviy barqarorlik va partiyaviy ongning shakllantirish vazifasi qo'yilgan. 1967-yilgi qarorda ijtimoiy fanlarning asosiy vazifasi marksistik-lenincha nazariyani chuqurlashtirish va yoshlarni kommunistik e'tiqod ruhida tarbiyalash deb ko'rsatildi. 1972-yilgi KPSS MK va SSSR Ministrlar Sovetining "Mamlakatda oliy ta'limni yanada takomillashtirish bo'yicha tadbirlar haqida"gi qo'shma qaror¹⁰¹ oliy ta'limni mafkuraviy tamoyillarga bo'ysundirishi oqibatida o'quv dasturlarida partiyaviylik, tarixiy materializm va dialektika ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan¹⁰².

1981-yilda oliy ta'lim muassasalari "mafkuraviy tarbiya beruvchi muassasa" sifatida ta'riflanib, bu yo'nalish "Qayta qurish" davrigacha davom etdi¹⁰³. 1985-yildan ta'limda erkinlik va ochiqlik tamoyillari asosida milliy tarix va ilgari taqiqlangan mavzularni qayta ko'rib chiqish imkoniyati tug'ildi¹⁰⁴. 1988-yilgi "Ijtimoiy fanlarni o'qitishni qayta qurish konsepsiyasi" loyihasi esa ijtimoiy fanlarni yangicha metodologiya asosida talqin qilish va mafkuraviy bosimni kamaytirishga qaratildi¹⁰⁵.

Ushbu bobning "**Oliy ta'lim dasturlari va o'quv rejalarining mazmun-mohiyati**" deb nomlangan ikkinchi qismida oliy ta'lim tizimida o'quv dasturlari va rejalarini mafkuraviy nazorat ostida shakllantirilgani, tarix fanining kommunistik g'oyalarga bo'ysundirilgani hamda 1980-yillarda "qayta qurish" davrida milliy tarixiy mavzularni o'qitishga yo'l ochilgani yoritilgan.

O'zbekiston ta'lim tizimida XX asr 20-yillaridan boshlab o'quv rejalarini va dasturlari kommunistik mafkura asosida shakllantirildi, tarix faniga oid yangi dastur va adabiyotlar yaratildi¹⁰⁶. 1933-yildan boshlab tarixni o'qitishda mafkuraviy tazyiq kuchayib, pedagogika bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlari dasturlari partiya andozalariga moslashtirilgan. 1930-yillardan tarixiy bilimlar berish hukmron mafkurani jamiyat ongiga singdirish vositasi sifatida talqin qilindi.

1934-yilgacha metodik birlikning yo'qligi va o'qituvchilar malakasining pastligi sabab dasturlar mavjud bilimlarni aks ettirgan bo'lsa, 1950-yillarda

¹⁰⁰ Умаров С.У. Ўзбекистонда олий таълим. – Тошкент: Ўздавнашр, 1950. – Б. 57.

¹⁰¹ КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Изд 9-е. Т.11. – Москва, 1986. – С. 237-239. <https://docs.historyrussia.org/ru>.

¹⁰² Совет Ўзбекистони историографияси. Педагогика институтлари учун қўлланма. – Тошкент, 1982. – Б. 4.

¹⁰³ Постановление Верховного Совета СССР от 12 апреля 1984 г. № 13-ХІ «Об основных направлениях реформы общеобразовательной и профессиональной школы». URL: <http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&base=ESU&n=636#06043241988658292>

¹⁰⁴ Шурухина Т.Н. Развитие педагогики как социально-гуманитарной науки: исторический контекст / Исследовательский поиск. Человек и образование, № 4 (17), 2008. – С. 77-78.

¹⁰⁵ Бурлакова Р.А. «Круглый стол»: проблемы исторического образования в школе // Вопросы истории, 1989, № 1. – С. 166-174.

¹⁰⁶ O'z MA. 34-fond, 1-ro'xat, 110-ish, 64-varaq.

ularning mazmuni yangilandi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda oliy ta'limda ijtimoiy fanlarni boshqaruvchi alohida Bosh boshqarma tashkil etilib, professor-o'qituvchilar faoliyati ustidan nazorat o'rnatildi. Ta'lim mazmuni o'quv rejalari, dasturlar va darsliklar darajasida davlat tomonidan belgilangan va nazorat qilingan¹⁰⁷. Mazkur davrda o'quv jarayoni fuqarolarni ijtimoiy safarbarlik va siyosiy sodiqlik ruhida tarbiyalashga qaratilib, kommunistik mafkura asosiy maqsad sifatida xizmat qilgan¹⁰⁸.

1952-yilda O'zK(b)P MK X plenumidan so'ng tarix faniga mafkuraviy tazyiqlar kuchaydi. Unda O'zbekistonning Rossiyaga qo'shilishi "progressiv ahamiyatga ega" deb talqin qilinib, boshqa yondashuvlar "xatolik" sifatida baholandi¹⁰⁹. Shu yili pedagogika institutlarida talabalar paxta yig'im-terimiga jalb qilinib, o'quv mashg'ulotlari 10-15% qisqardi¹¹⁰. 1959-yilda esa yangi rejaga ko'ra barcha talabalar uchun arxeologik, etnografik, muzey va pedagogik amaliyot majburiy etilib, umumiy hajmi 11 haftadan 34 haftaga oshirilgan. Ta'limda KPSS tarixi, ilmiy kommunistik asoslari, sotsialistik jamiyat taraqqiyoti va SSSR xalqlari tarixi kabi majburiy fanlar joriy qilingan. Ular orqali partiya yetakchiligi, sinfiy kurash va "internatsional birlik" g'oyalari targ'ib etildi¹¹¹. 1980-yillarning ikkinchi yarmida "qayta qurish" siyosati tufayli tarix fanida metodologik yangilanishlar yuz berib, Amir Temur davri, jadidlar harakati va milliy ozodlik kurashlari ilk bor ochiq muhokamaga chiqarildi¹¹².

Uchinchi bobning "**O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix fani ta'limi**" nomli uchinchi qismida sovet davrida o'rta maxsus va oliy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarning mafkuraviy nazorat ostida, kommunistik dunyoqarashni shakllantirish vositasi sifatida o'qitilgani yoritilgan.

O'rta maxsus pedagogik ta'lim sohasidagi davlat siyosati Butunittifoq kommunistik partiyasi va SSSR Xalq Komissarlari Soveti ko'rsatmalari asosida shakllanib, mahalliy tashkilotlar tomonidan hududiy sharoitlarga moslashtirilgan. 1920-yilda Turkiston kasbiy ta'lim qo'mitasi, 1924-yilda esa Narkompros tarkibida "O'zprofobr" tashkil etilib, bir qator texnik maktablar uning tasarrufiga o'tkazildi¹¹³. 1930-yillarga kelib O'zbekistonda yetti yillik maktab-texnikum-oliy ta'lim tizimi shakllandi, ta'lim jarayoni ishlab chiqarish bilan bog'lashga qaratildi¹¹⁴. O'rta ta'lim bosqichida rus tili va texnik fanlarga ustuvorlik berilishi natijasida gumanitar fanlar, xususan milliy tarix va geografiya siqib chiqarildi¹¹⁵. Bu esa tarixiy ongni buzib, milliy ildizlardan uzilish, kommunistik mafkuraga

¹⁰⁷ O'z MA. R-94-Fond, 5-ro'yxat, 1089-ish, 39-varaq.

¹⁰⁸ Кимерлинг А.С. Выполнять и лукавить: политические кампании поздней сталинской эпохи. – Москва, 2017. – С. 14.

¹⁰⁹ Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. Darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – B. 313-314.

¹¹⁰ Содиков С.С. Ўзбекистон олий таълими қайта қуриш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1988. – Б. 23.

¹¹¹ O'z MA. R-94-Fond, 5-ro'yxat, 4624-ish, 81-varaq.

¹¹² Ахмедов Х., Ирисбекова Э., Норжигитов Х. Қайта қуриш чорраҳаларида. Тошкент: Мехнат, 1987. – Б. 51.

¹¹³ Эргашев М. Из истории подготовки в Узбекистане кадров со средним техническим образованием (1917-1937) / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент: Фан, 1973, №3. – С. 34-35.

¹¹⁴ O'z MA. 837-Fond, 32-ro'yxat, 666-ish, 97-varaq.

¹¹⁵ Сиддиқов Р.Б. Среднее специальное профессиональное образование Узбекистана в период советского тоталитаризма и в годы независимости (1945-2001 гг). Автореф. диссер. на соиск. уч. степ. канд ист наук. – Ташкент, 2002. – С. 13.

qaramlik va “SSSR yagona Vatan” g‘oyasining singdirilishiga olib keldi¹¹⁶. Tarix fani mustaqil emas, balki jamiyatshunoslik kursi doirasida, asosan SSSR tarixi, partiya siyosati va sotsialistik qurilish kampaniyalarini yoritishga xizmat qildi¹¹⁷. Darslar haftasiga 2-4 soat ajratilib, ma’ruza va munozaralar shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa-da, mazmuni ilmiy tahlildan ko‘ra mafkuraviy targ‘ibotga asoslangan edi¹¹⁸. Natijada tarixiy bilimlar obyektiv emas, tanqidiy fikrlash imkoniyati cheklangan, ta’limning asosiy maqsadi esa kasbiy tayyorgarlik bilan birga sovet dunyoqarashini shakllantirish bo‘lib qolgan¹¹⁹.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston SSRda tarixchi kadrlar tayyorlash muammolari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekistonda tarixchi kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj, oliy ta’lim tizimida tarixchi mutaxassislar tayyorlovchi maxsus fakultetlarning tashkil etilishi va tarix fakultetlari uchun o‘quv materiallarining yaratilishi kabi masalalar tahlil qilingan.

Mazkur bobning **“XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekistonda tarixchi kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj: muammo va yechimlar”** deb nomlangan birinchi qismida 1920-1930-yillarda O‘zbekistonda tarixchi kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj masalasida malakali mutaxassislar yetishmasligi, kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish va milliy tarixiy maktabni shakllantirish muammolari hamda ularning yechimlari ko‘rib chiqilgan. Mahalliy tarixchi kadrlar tayyorlash ehtiyoji nafaqat ta’lim jarayonini yo‘lga qo‘yish, balki mahalliy aholiga kommunistik mafkurani singdirish bilan bog‘liq edi¹²⁰. Tadqiqotchi J.Abdurahmonovanning qayd etishicha, o‘qituvchilar yetishmasligi sababli 1921-yildan boshlab qisqa muddatli kurslar tashkil qilinib, ularda asosan diniy maktablardan chiqqan ishchi va dehqon yoshlarga siyosiy-mafkuraviy ruhda ta’lim berildi. Bu kurslarda tarix fani mustaqil ilmiy soha sifatida emas, balki sinfiy kurash va marksizm-leninizm g‘oyalari asosida o‘rgatildi¹²¹. Shu yillarda Samarqandda “Sharq mehnatkashlarining kommunistik universiteti” (ShMKU)¹²², Toshkentda Turkiston davlat universiteti va keyinchalik O‘rta Osiyo kommunistik universiteti (SAKU)¹²³ faoliyat yurita boshladi. Bu oliy ta’lim muassasalari yangi sovet ziyolilarini tayyorlashda, shuningdek tarix, til va adabiyot kabi gumanitar fanlardan o‘qituvchilarni yetkazib berishda muhim markaz bo‘lib xizmat qildi. 1924-yilda Toshkentdagi Sovet maktablarida muallimlar tayyorlash institutida maxsus gumanitar kurslarning ochilishi respublika ta’lim tizimida mahalliy kadrlar yetishmasligini bartaraf etishda alohida bosqich bo‘ldi¹²⁴.

¹¹⁶ Хунар-техника билим юртларида умумтаълим предметларини ўқитишни такомиллаштириш. – Тошкент: 1988. – Б. 21.

¹¹⁷ O‘z MA. R-94-Fond, 5-ro‘yxat, 5998-ish, 21-varaq.

¹¹⁸ Сиддиқов Р.Б. Среднее специальное профессиональное образование Узбекистана – С. 14.

¹¹⁹ Зимин А.Д. Система профтехобразования Узбекистана за 30 лет. – Ташкент: Укитувчи, 1972. – С. 36.

¹²⁰ O‘z MA. R-94-Fond, 1-ro‘yxat, 223-ish, 241-varaq.

¹²¹ Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги катағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари 1925-1941 йиллар мисолида). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2002. – Б. 56.

¹²² O‘z MA. 34-fond, 1-ro‘yxat, 1998-ish, 32-varaq.

¹²³ Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи... – Б. 226.

¹²⁴ O‘z MA, 34-fond, 1-ro‘yxat, 477-ish, 14-varaq.

Dastlabki tarixchi-pedagoglar 1925-yilda O‘zMU va SamDUda tayyorlana boshlagan¹²⁵. 1927-yil yanvarda Samarqandda Oliy pedagogika instituti ochilib, unda ijtimoiy-iqtisodiy bo‘lim orqali tarix fani o‘qituvchilari tayyorlangan. Institut tarkibida Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha 1 nafar professor va 3 nafar assistent faoliyat yuritib, ilk bosqichda 48 nafar talaba va 27 nafar ko‘ngilli qabul qilingan¹²⁶. 1927-1928-o‘quv yilida tarix darslari kommunistik mafkura asosida sinfiy qarama-qarshilik ruhida talqin qilindi. Sharq xalqlari tarixi ham sovet g‘oyalariga moslashtirilib, 10 soatlik mashg‘ulotlarda o‘qitildi. Bundan tashqari, ijtimoiy-siyosiy fanlarga 12 soat ajratilib, unda partiya tarixi va kommunistik g‘oyalar targ‘ib qilindi¹²⁷. 1928-yildan VKP(b) qaroriga ko‘ra mahalliy millat yoshlari oliy ta‘lim muassasalariga imtihonsiz qabul qilina boshladi. Shu bilan birga, talab darajasi pasaytirilib, ta‘lim imkoniyatlari kengaytirildi. Mahalliy talabalar ulushi 1922-yilda 8%, 1925-yilda 18%, 1928-yilda 28%ni tashkil etdi. 1929-yildan boshlab esa birinchi kurs talabalari orasida mahalliy yoshlar beshdan bir qismni tashkil qila boshladi. Mahalliy kadrlarni tayyorlash maqsadida 1928-1929-o‘quv yilidan barcha fakultetlar qoshida tayyorlov kurslari ochildi, 1930-yildan ular kunduzgi va kechki bo‘limlarga aylantirildi. Faqat 1930-yilning o‘zida SAGU tayyorlov bo‘limida qariyb 460 nafar tinglovchi ta‘lim oldi¹²⁸.

To‘rtinchi bobning ikkinchi qismida **“Oliy ta‘lim tizimida tarixchi mutaxassislar tayyorlovchi maxsus fakultetlarning shakllantirilishi”** masalalari atroflicha yoritilgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab O‘zbekistonda tarixchi mutaxassislarni maqsadli tayyorlash jarayoni boshlandi. 1935-yilda Toshkent davlat pedagogika institutida va O‘rta Osiyo davlat universitetida (SAGU) tarix fakulteti tashkil etilib¹²⁹, tarixni mustaqil yo‘nalish sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Ammo dastlabki yillarda fakultetlarda asosan rusiyzabon talabalar tahsil olgan, mahalliy kadrlar soni esa kam edi¹³⁰.

1934-1935-o‘quv yilida Samarqand universitetida 1964 nafar talaba o‘qigan bo‘lib, ulardan 179 nafari bitiruvchi, shu jumladan 13 nafari tarixchi bo‘lgan¹³¹. Mazkur ko‘rsatkich bitiruvchilar umumiy ko‘rsatkichining 14 foizini tashkil etgan holda vrach, iqtisodchi va kimyo yo‘nalishidan keyingi o‘rinda edi¹³². Shuningdek, Toshkent davlat universitetida umumiy tarix, SSSR tarixi, O‘rta Osiyo tarixi, KPSS tarixi, falsafa va siyosatshunoslik bo‘yicha kafedralar faoliyat yurita boshladi.

XX asrning 40-50-yillarida tarix fakultetlarida mahalliy kadrlar tayyorlash sekin kechdi. Masalan, 1941-yilda ToshDU tarix fakultetini tamomlagan 61 nafar bitiruvchidan atigi 9 nafari o‘zbek millatiga mansub edi. Shu davrda tarixchi

¹²⁵ Яковлев Н.М. Становление советской системы народного образования в Узбекистане (1917-1930). – Ташкент, 1971. – С. 57.

¹²⁶ O‘z MA. R-94-Fond, 1-ro‘yxat, 726-ish, 23-varaq.

¹²⁷ O‘sha joyda. 742-ish, 80-varaq.

¹²⁸ O‘z MA. R-94-Fond, 1-ro‘yxat, 475-ish, 15-varaq.

¹²⁹ Сборник статей: Юбилейное изд. к 25-летию САГУ. – Ташкент: Изд. САГУ, 1943. – С. 9.

¹³⁰ Умаров С.У. Высшее образование в Узбекистане 25 лет. – Ташкент, 1949. – С. 46.

¹³¹ Samarqand viloyat davlat arxivi. 637-fond, 1-ro‘yxat, 93-ish, 5-varaq.

¹³² Samarqand viloyat davlat arxivi. 521-fond, 1-ro‘yxat, 30-ish, 17-varaq.

kadrlarning aksariyatini rus va boshqa slavyan xalqlari vakillari tashkil etgan¹³³. Mahalliy tarixchi-pedagoglar orasida dotsent A.H. Hamrayev ilk vakillardan biri sifatida tilga olinadi¹³⁴. Mintaqa miqyosida ham o'xshash holat kuzatildi¹³⁵. Shu bilan birga 1951-yilda Qirg'iziston davlat universitetida 400 talabaniq faqat 25 nafari tarix fakultetida tahsil olgan bo'lsa¹³⁶, Qozog'istonda Forobiy nomidagi universitetda 40 nafar tarixchi talaba mavjud edi¹³⁷. N. Mustafayeva tahlillariga ko'ra, O'zbekiston SSRda esa 1952-1953-yillarda Xalq ta'limi vazirligi tizimida 16 ta oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatib, ulardan 10 tasida tarix fakultetlari ochildi¹³⁸. XX asning 50-yillarida tarixchi kadrlar tayyorlash bo'yicha Rossiyadan keyin Belorussiya va Ukraina yetakchi hududlar sifatida ajralib turgan. Belorussiyada davlat universitetidan tashqari Vitebsk, Mogilyov, Gomel, Grodno va Brest pedagogika institutlarida ham tarix fakultetlari faoliyat yuritib, yuzlab mutaxassislar tayyorlangan¹³⁹.

1960-1970-yillar davomida O'zbekistonda tarixchi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Buning asosiy sababi sovet ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, xususan, maktablarda tarix fanining to'rtinchi va o'ninchi sinflarda ham o'qitilishi bilan bog'liq edi. Shu davrda tarixchi kadrlar yetishmovchiligi sababli yangi oliy ta'lim muassasalari qoshida maxsus fakultetlar ochildi. Jumladan, 1961-yildan Qarshi davlat universitetida tarix-filologiya fakulteti tashkil etilib, janubiy viloyatlar uchun dastlabki tarixchilar tayyorlana boshlandi¹⁴⁰. Ammo oliy ta'lim tizimida qabul jarayonlari ko'p hollarda respublika ehtiyojlaridan kelib chiqmagan. R. Xoliqovanning ta'kidlashicha, abituriyentlarni o'qishga qabul qilishda "hududlar kesimi" tizimi amal qilib, chekka hududlardan kelgan abituriyentlar ballardan qat'iy nazar, imtiyozlarga ega bo'lgan¹⁴¹.

XX asning 70-yillarida respublika miqyosida tarix fani o'qituvchilari soni ko'paydi. Tarixchi pedagoglar kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida tayyorlandi. Masalan: 1971-yilda kunduzgi bo'limda 416 nafar, kechki va sirtqi ta'limda 865 nafar tarixchi kadr tayyorlangan. 1972-yilda bu ko'rsatkich kunduzgi bo'limda 493 nafarga, kechki va sirtqi bo'limda esa 1166 nafarga yetgan. 1973-yilda kunduzgi ta'limdagi talabalar soni davlat qabul rejasi qisqarishi sababli 448 nafarga kamaygan. Biroq kechki va sirtqi bo'limlarda 1396 nafarga ko'tarilgan.

¹³³ O'z MA. R-94-Fond, 7-ro'yxat, 2140-ish, 63-varaq.

¹³⁴ Холикова Р.Э. Ўзбекистонда тарих фани... – Б. 12.

¹³⁵ O'z MA. R-94-Fond, 5-ro'yxat, 4858-ish, 2-varaq; Tўраева М. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммо ва оқибатлар (1920-1940 йй.). Тарих фан номз. диссер. –Тошкент, 2001. – Б. 103.

¹³⁶ Кадыралиева Н.Ш. Подготовка научно-педагогических кадров историков в Кыргызстане в 1932-1991 гг. Диссер. на соиск.уч.степ. канд. Ист. наук. – Бишкек, 2021. – С. 90.

¹³⁷ Козьменко О.П. Подготовка учительских кадров Казахстана в послевоенные годы (1946-1958 гг.). Автореф. диссер. на соиск.уч. степ. канд.ист.наук. – Москва, 1999. – С. 14, 23.

¹³⁸ Мустафаева Н.А. XX аснинг 50-йиллари Ўзбекистонда таълим тизими: ривожланиш зиддиятлари // Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. Очерклар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2015. – Б. 260-261.

¹³⁹ Подготовка педагогических и научных кадров историков и развитие исторической науки в Беларуси. – Гродно, ГрГУ, 2005. – С. 50-51.

¹⁴⁰ Садыков С.С. Очерки развития высшего образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1969. – С. 47; Журакулов О. Қарши давлат университети. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 17

¹⁴¹ Холикова Р.Э. Ўзбекистонда тарих фани... – Б. 24.

Shuningdek, ayrim oliy ta'lim muassasalarida tarix fakultetlarining rivoji ham kuzatildi. Masalan, Farg'ona davlat universitetida 1971-1972-o'quv yilida fakultetning to'rt bosqichida jami 220 nafar talaba tahsil olgan¹⁴².

XX asrning 80-yillariga kelib O'zbekistonda tarix fanida KPSS va partiya tashkilotlarining rolini ochib beruvchi tadqiqotlar sonini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi. N. Mustafayeva ma'lumotlariga ko'ra, 1981-yilga kelib respublika oliy o'quv yurtlaridagi mavjud 42 ta "KPSS tarixi" kafedralarida 446 nafar o'qituvchi faoliyat olib borgan bo'lib, ular orasida 27 nafari fan doktori, 270 nafari fan nomzodi edi. Shu davrdan boshlab tarix fakultetlarida "KPSS tarixi" yo'nalishiga talabalar qabul qilish ham yo'lga qo'yildi. Barcha tarixiy yo'nalishlar va davrlarni markscha-lenincha g'oyalar doirasida o'rganish majburiy bo'lib, marksistik tarixshunoslik namoyandalari tarixiy materializmni qo'llashning "namunaviy uslublari" sifatida targ'ib qilindi¹⁴³. 1980-yillarda tarix fakultetlariga o'qishga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Masalan, 1981-1982-o'quv yilida ToshDU tarix yo'nalishiga 75 nafar talaba qabul qilinishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, amalda 100 nafar talaba qabul qilingan. Shu bilan birga, xorijiy talabalar ham respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil ola boshladi. ToshDUda jami 309 nafar xorijiy talabaning 6 nafari tarix yo'nalishini tanlagan¹⁴⁴.

To'rtinchi bobning uchinchi qismi "**Tarix fakultetlari uchun o'quv materiallarining yaratilishi**"ga bag'ishlangan. Oliy ta'lim muassasalari uchun ilk darslik va ilmiy adabiyotlar XX asrning 1920-1930-yillarida yaratilgan bo'lib¹⁴⁵, ular tarixiy hujjatlar va manbalarni jamlash hamda tarixni ilmiy mezonlar asosida yoritishga qilingan dastlabki urinishlar sifatida alohida ahamiyatga ega. 1929-yilda P. Soliyev tomonidan XV-XIX asrlar tarixini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan asar chop etilgan edi¹⁴⁶. Biroq ushbu davrda oliy ta'lim adabiyotlarini yaratishda siyosiy buyurtma va mafkuraviy talablar ustunlik qilgan, natijada o'quv qo'llanmalarining mazmuni ko'pincha mafkuraviy tahrirdan o'tkazilgan¹⁴⁷.

1942-yilda A.Y. Yakubovskiy va K.V. Trever tomonidan "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" darsligi tayyorlangan bo'lsa-da, u mafkuraviy nuqtayi nazardan tanqidga uchrab, nashr etilmagan. Shunga qaramay, 1947-1950-yillarda Moskva va Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) tarixchilari rahbarligida ikki jildlik "O'zbekiston xalqlari tarixi" akademik nashri tayyorlanib, chop etildi. 1947-1949-yillarda mamlakatdagi ilmiy muassasalarda tarixiy asarlarning g'oyaviy mazmuni, nazariya va mafkuraga mosligi yuzasidan qizg'in muhokamalar o'tkazildi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda esa asosan qadimgi davr va o'rta asrlar tarixi, shuningdek, kapitalistik munosabatlarga oid tadqiqotlar yaratildi¹⁴⁸. "O'zbekiston

¹⁴² O'z MA. R-94-Fond, 7-ro'yxat, 2174-ish, 25-varaq.

¹⁴³ Мустафаева Н.А. Совет давлат мафкурасининг Ўзбекистон маданияти ривожига таъсири. Муаммо тарихшунослиги. / Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Институт истории АН РУз. Д.А. Алимова. – Ташкент: Navro'z, 2018. – С. 341.

¹⁴⁴ История образования в архивных источниках... – С. 418.

¹⁴⁵ Азиз А. Ўзбек тарихи учун материаллар. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1928. – 71 б.

¹⁴⁶ Солиев П. Ўзбекистон тарихи: (XV-XIX асрлар). – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1929. – 139 б.

¹⁴⁷ Содиқов О.С. Ўзбекистон тарихи программаси. – Тошкент, 1974. – Б. 24.

¹⁴⁸ История народов Узбекистана / Ин-т истории и археологии АН УзССР. – Ташкент, 1947. – 424 с; История народов Узбекистана. Академия наук Узбекской ССР. – Ташкент, 1949. – 204 с; Тревер В, Якубовский А.Ю.,

xalqlari tarixi” ikki jildlik akademik nashrining asosiy xususiyati shundan iborat ediki, sovet davlati tarixni mafkuraviy qurol sifatida koʻrgan. Ushbu asarda oʻzbek xalqining shakllanishi jarayoni, shuningdek, “milliy qahramonlar” konsepsiyasi davlat siyosiy talablari asosida ishlab chiqildi. Tarixiy jarayonlarni talqin etishda “sovet xalqlarining doʻstligi” konsepsiyasi ustuvor yoʻnalish sifatida qoʻllandi va bu yondashuv Oʻrta Osiyo xalqlarining oʻtmishini tushuntirishda asosiy mezunga aylantirilgan¹⁴⁹.

XX asrning 50-yillaridan boshlab Oʻzbekiston tarixini oʻrganish jarayoni tobora kuchaydi va uning turli davr hamda bosqichlarini hukmron siyosiy mafkura taʼsirida yoritishga qaratilgan izlanishlar soni ortdi. 1958-yilda Ya.Gʻ. Gʻulomov, R.N. Nabiyeu va M.Gʻ. Vahobov hammuallifligida tayyorlangan bir jildlik “Oʻzbekiston SSR tarixi” nashr qilindi. Ushbu asar mohiyatan sovet davlatining mahalliy respublikalar hayotiga koʻrsatgan taʼsirini “sotsialistik jamiyat qurilishi va uning gʻalabasi” sifatida talqin etishga qaratilgan edi. Asar tarixiy bosqichlarga boʻlingan boʻlib, ular “Ibtidoiy jamiyat”, “Quldorlik jamiyati”, “Oʻzbekistonda feodalizmning gʻalabasi”, “Feodalizmning rivojlanishi” va “Oʻzbekistonda sotsializmning qurilishi” kabi boʻlimlarni oʻz ichiga olgan¹⁵⁰. 1962-yilda esa Ijtimoiy fanlarni oʻqitish boshqarmasi tomonidan oliy oʻquv yurtlari uchun “KPSS tarixi” kursi dasturi asosida maxsus oʻquv qoʻllanma nashr etildi¹⁵¹. 1968-yilda I. Moʻminovning Amir Temur hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan asari tarixiy nuqtayi nazardan muhim ilmiy burilish boʻldi¹⁵². Mazkur asar mafkuraviy cheklovlarga qaramay, Amir Temur shaxsini chuqur va keng koʻlamda tahlil qilishi bilan ajralib turdi hamda Oʻzbekiston tarixiy merosini qayta anglashda muhim qadamlardan biri sifatida baholandi.

1970-yillarga kelib respublika tarixchi olimlari tomonidan toʻrt jildlik “Oʻzbekiston SSR tarixi”ni yaratish ishlari boshlandi. 1970-yilda uning birinchi jildi chop etilib, asarga I.M. Moʻminov bosh muharrir, Y.Gʻ. Gʻulomov esa muharrir sifatida rahbarlik qildi. Mazkur ilmiy ish sovet davri tarixshunosligida yirik loyiha boʻlib, Oʻzbekiston tarixini siyosiy-mafkuraviy nuqtayi nazardan tizimli ravishda yoritishga qaratilgan edi.

1971-yilda Oʻzbekiston SSR tarixining ikkinchi, uchinchi va toʻrtinchi jildlari I.M. Moʻminov bosh muharrirligi va H.Z. Ziyoyev muharrirligi ostida nashr qilindi¹⁵³. Uchinchi jildning yaratilishida kapitalizmga qarshi kurash, uning iqtisodiy hamda tarixiy negizlarini tanqidiy yoritish va sotsializm qurilishini keng targʻib etish asosiy yoʻnalish boʻlib xizmat qildi. Mazkur jildda 1917-1937-yillar oraligʻida Oʻzbekiston hududida yuz bergan tarixiy jarayonlar bayon qilindi.

Воронец М.Э. История народов Узбекистана. Том 1. С древнейших времён до начала XVI века. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950. – 474 с.

¹⁴⁹ Алимджанов Б. Ўзбекистонда тарих фани: ўтмиши ва ҳозирги аҳволи. Ўзбекистонда замонавий тарих мавжудми? https://www.uzanalytics.com/tarix/3686/#_edn3.

¹⁵⁰ Ғулумов Я.Ғ., Набиев Р.Н., Ваҳобов М.Ғ. Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент: Фан, 1958. – 692 б.

¹⁵¹ КПСС тарихи. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – 51 б.

¹⁵² Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1968. – 51 б.

¹⁵³ Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. Т. 2. Ўзбек хонликлари Россияга қўшиб олинганидан октябр тўнтарышига қадар. – Тошкент: Фан, 1971. – 664 б.

To'rtinchi jild esa 1937-1968-yillarni qamrab olib, unda sovet tarixchilari tomonidan bu davr "sotsialistik jamiyatning rivojlangan va mustahkamlangan g'alabasi" sifatida talqin qilindi¹⁵⁴.

